



OLIY TA'LIM TIZIMI KADR LARINI
QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASI NI OSIRISH INSTITUTI

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MA'NAVIY -MA'RIFIY ISHLARNI TIZIMLI TASHKIL ETISH

O'quv-uslubiy majmua



2025



+99871-202-01-20
<https://bimm.uz>

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

**“OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNI
TIZIMLI TASHKIL ETISH”**

MODULI BO‘YICHA

O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

(Oliy ta'lismuassasalarining yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor, ma'naviyat ishlari bo'yicha dekan o'rinosbosarlari, yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha mas'ul rahbarlar kadrlari uchun)

Toshkent – 2025

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrdagi 485-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar: M.Quronov, N.Shukurova

Taqrizchi: O. Musurmonqulov, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori.

O‘quv-uslubiy majmua Oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Ilmiy-metodik Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan (2024-yil 27-dekabrdagi 3-son bayoninig 4.2-qarori)

MUNDARIJA

ISHCHI DASTUR.....	4
NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....	17
SEMINAR-TRENING MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....	51
ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	78

I. ISHCHI DASTUR

I. ISHCHI DASTUR

KIRISH

Ushbu ishchi dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida” Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” PF-4732-son, 2019-yil 27-avgustdagи “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida” PF-5789-son, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847-son, 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-6097-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son, 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir bиринчи navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-14-son, 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida” PF-158-son Farmonlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 797-son hamda 2024-yil 11-iyuldagi “Oliy ta’lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 415-son Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari rahbar kadrlarining oliy ta’lim tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tartibga soluvchi normativ - huquqiy hujjatlar asoslari, oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishdagi dolzarb vazifalar, yoshlarda tarbiyalash lozim bo‘lgan fazilatlar, oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishdagi muammo va ularning yechimlari bo‘yicha yangicha yondashuvlar, mafkuraviy hurujlarga qarshi milliy g‘oya asosida birgalikda kurashishda ma’naviy tarbiyaning uzbivligini ta’minalash, ta’lim muassasalarida ijtimoiy media platformalaridan foydalanish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini yanada rivojlantirishni maqsad qiladi.

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi: tinglovchilarni oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tizimli tashkil etish bo‘yicha bilimlarini takomillashtirish, ushbu sohada amalga oshirilayotgan yangicha yondashuvlar bilan yaqindan tanishtirish va sohadagi muammolarni aniqlash, tahlil etish va baholash bilan bog‘liq ko‘nikma va malakalarini yangilash hisoblanadi.

Modulning vazifalari:

- oliy ta’lim tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tartibga soluvchi normativ - huquqiy hujjatlar asoslarini **mazmun-mohiyatini o‘zlashtirish**;
- oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishdagi muammo va ularning yechimlari bo‘yicha yangicha yondashuvlar **bo‘yicha chuqr bilim olishni ta’minalash**;
- oliy ta’lim muassasalarini m’naviyat va marifat, madaniyat o‘chog‘iga aylantirish uchun ta’lim-tarbiyaning interaktiv usullarini joriy qilishning **ahamiyatini yoritib berish**;
- ijtimoiy media vositalari va ularning ta’limda qo‘llash **borasidagi nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirish**;
- mafkuraviy hurujlarga qarshi milliy g‘oya asosida birgalikda kurashish, ma’naviy indikatorlarni yaratish.

Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiylariga qo‘yiladigan talablar

“Oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tizimli tashkil etish” modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- oliy ta’lim tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tartibga soluvchi normativ - huquqiy hujjatlarni;
- oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishdagi muammo va ularning yechimlari bo‘yicha yangicha yondashuvlarni;
- kitobxoblik mutolaa madaniyatini;
- mafkuraviy hurujlarga qarshi milliy g‘oya asosida birgalikda kurashishda ma’naviy tarbiyaning uzviyligini ta’minlashni;
- ta’lim muassasalarida ijtimoiy media platformalarining o‘rnini;
- ijtimoiy media orqali ta’limda axborot tarqatishning zamonaviy usullarini **bilishi** lozim.

Tinglovchi:

- oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishdagi muammolarni tahlil etish va ularning yechimlarini topish;
- mafkuraviy xurujlarga qarshi milliy g‘oya asosida birgalikda kurashishda ma’naviy tarbiyaning uzviyligini ta’minlash;
- ma’naviy indikatorlarni yaratish;
- ijtimoiy media vositalarini ta’limga tadbiq etish;
- oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishdagi dolzarb vazifalarni amalga oshirish;

- Facebook, Instagram, LinkedIn, Twitter, Telegram, YouTube kabi

platformalarning ta’limdagi imkoniyatlaridan foydalanish;

- ta’lim muassasalarida ijtimoiy media platformalarining o‘rnini yoritib berish **ko‘nikma va malakalariga** ega bo‘lishi lozim.

Tinglovchi:

- talabalarni Vatanga sadoqat, o‘zaro mehr oqibat, yuksak mas’uliyat, bag‘rikenglik, sog‘lom dunyoqarash, kitobxonlik va media madaniyat, shukronalik, huquqiy, siyosiy, AKT savodxonligi, innovatsion fikrlash, vatan taraqqiyotiga daxldorlik, yot g‘oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetini mustahkamlash borasidagi ishlarni amalga oshirish;

- oliy ta’lim muassasalarini m’naviyat va marifat, madaniyat o‘chog‘iga aylantirish uchun ta’lim-tarbiyaning interaktiv usullarini joriy qilish;

- ijtimoiy media orqali ta’limda axborot tarqatishning zamonaviy usullaridan samarali foydalanish **kompetensiyalariga** ega bo‘lishi lozim.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

“Oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tizimli tashkil etish” moduli ma’ruza, seminar-trening mashg‘ulotlari shaklida olib boriladi.

O‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan.

Ma’ruza va seminar-trening mashg‘ulotlar munozara va debat, ilmiy baxs va muhokama shaklida, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishslash va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llagan holda, zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalar asosida tashkil etiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“Oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tizimli tashkil etish” moduli o‘quv rejadagi “Ma’naviy-ma’rifiy faoliyatning strategik boshqaruvi” moduli bilan o‘zaro bog‘liq hamda uslubiy jihatdan uzviy bog‘langan holda rahbar kadrlarning ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tizimli tashkil etish masalalarini o‘rganish, ularni tahlil etish, amalda qo‘llash va baholashga doir kasbiy tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

Modulning oliv ta'limdagi o'rni

"Oliv ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish" modulini o'zlashtirish orqali tinglovchilar ma'naviy-ma'rifiy ishlarni samarali tashkil etish uchun ta'lim-tarbiyaning interaktiv usullarini joriy qilish masalalariga oid kasbiy bilim va malakalarga ega bo'ladilar.

MODUL BO'YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

№	Modul mavzulari	Auditoriya o'quv yuklamasi			
		Jami	Nazariy	Seminar-trening	Tajriba almashish
1.	Oliv ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil normativ huquqiy asoslari	2	2		
2.	Oliv ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishdagi dolzarb vazifalar	6	2	2	2
3.	Oliv ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishdagi muammo va ularning yechimlari	2		2	
4.	Mafkuraviy xurujlarga qarshi milliy g'oya asosida birgalikda kurashishda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash	4		2	2
5.	Ijtimoiy media vositalari va ularning ta'limda qo'llanilishi	6		4	2
	Jami:	20	4	10	6

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-MAVZU: OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLARNI TASHKIL ETISHNING NORMATIV HUQUQIY ASOSLARI. (2 soat)

Oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishning normativ huquqiy asoslari. Oliy ta’lim tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tartibga soluvchi normativ - huquqiy hujjatlar.

2-MAVZU: OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLARNI TASHKIL ETISHDAGI DOLZARB VAZIFALAR. (2 soat)

Oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishdagi dolzarb vazifalar. Bugun yoshlarda tarbiyalash lozim bo‘lgan fazilatlar.

SEMINAR-TRENING MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-MAVZU: OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLARNI TASHKIL ETISHDAGI DOLZARB VAZIFALAR. (2 soat)

Talabalarni Vatanga sadoqat, o‘zaro mehr-oqibat, yuksak mas’uliyat, bag‘rikenglik, sog‘lom dunyoqarash, kitobxonlik va media madaniyat, shukronalik, huquqiy, siyosiy, AKT savodxonligi, innovatsion fikrlash, Vatan taraqqiyotiga daxldorlik, yot g‘oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetini mustahkamlash borasida ishlarni tizimli tashkil etish masalalari.

2-MAVZU: OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLARNI TASHKIL ETISHDAGI MUAMMO VA ULARNING YECHIMLARI.(2 soat)

Oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishdagi muammolar. Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishdagi muammolar yechimlari bo‘yicha yangicha yondashuvlar.

3-MAVZU: MAFKURAVIY XURUJLARGA QARSHI MILLIY G‘OYA ASOSIDA BIRGALIKDA KURASHISHDA MA’NAVIY TARBIYANING UZVIYLIGINI TA’MINLASH.(2 soat)

Mafkuraviy xurujlarga qarshi milliy g‘oya asosida birgalikda kurashishda ma’naviy tarbiyaning uzviyligini ta’minlash. Ma’naviy indikatorlarni yaratish.

4-MAVZU: Ijtimoiy media vositalari va ularning ta’limda qo‘llanilishi.(4 soat)

Ta’lim muassasalarida ijtimoiy media platformalarining o‘rni. Ijtimoiy media orqali ta’limda axborot tarqatishning zamonaviy usullari. Ijtimoiy media vositalari va ularning ta’limdagi qo‘llanilishi.

TAJRIBA ALMASHISH MAZMUNI

Tajriba almashish yetakchi oliy ta’lim muassasalarida yoki iqtisodiyot va ijtimoiy soha tarmoqlarining tegishli tashkilotlarida amaliy mashg‘ulot tarzida tashkil etiladi.

1-TAJRIBA ALMASHISH MASHG‘ULOTI (2 soat).

Oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishdagi dolzarb vazifalar. Bugun yoshlarda tarbiyalash lozim bo‘lgan fazilatlar.

2-TAJRIBA ALMASHISH MASHG‘ULOTI (2 soat).

Oliy ta’lim muassasalarni m’naviyat va marifat, madaniyat o‘chog‘iga aylantirish uchun ta’lim-tarbiyaning interaktiv usullarini joriy qilish. Kitobxonlik mutolaa madaniyatini oshirish.

3-TAJRIBA ALMASHISH MASHG‘ULOTI (2 soat).

Facebook, Instagram, LinkedIn, Twitter, Telegram, YouTube kabi platformalar va ularning ta’limdagi imkoniyatlari.

O‘QITISH SHAKLLARI

Mazkur modulning ma’ruza va seminar-trening mashg‘ulotlarini o‘qitishda quyidagi shakllardan foydalilanildi:

- ma’ruza mashg‘ulotlari (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, motivatsiyani rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);

- seminar-trening mashg‘ulotlari davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini rivojlantirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);

- bahs va munozaralar (loyihamon yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR

I. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida” Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktabrda qabul qilingan “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida” Qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847- sonli Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabr “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-6097-sonli Farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi ““O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida” PF-158-son Farmoni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagи “Ma’muriy islohotlar doirasida oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-200-son Qarori.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-fevraldagи “Ta’lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-54-son Qarori.

II. Maxsus adabiyyotlar

1. Standards and Guidelines for Quality Assurance in the European Higher Education Area (ESG).
2. Handbook on university accreditation in Korea.
3. International Programme Accreditation. Method Handbook for Higher Education Institutions Outside the UK.
4. EAHEA accreditation handbook. EAHEA Accreditation Quality Standards.

III. Elektron ta’lim resurslari

1. <http://www.lex.uz>
2. <http://www.norma.uz>
3. <http://www.yuz.uz>
4. [http:// www.strategy.uz](http://www.strategy.uz)
5. <https://president.uz>
6. [http:// www.edu.uz](http://www.edu.uz)
7. [http:// www.lib.bimm.uz](http://www.lib.bimm.uz)
8. <https://www.enqa.eu>

9. <https://www.inqahe.org>
10. <https://www.eqar.eu>
11. <https://wfme.org>
12. <https://apqn.org>
13. <https://ireg-observatory.org>
14. <https://www.chea.org/about-ciqg>
15. <https://www.ceenqa.org>
16. <https://iveta.global>
17. <https://www.unwto.org>

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-MAVZU:OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNI TASHKIL ETISHNING NORMATIV HUQUQIY ASOSLARI. (2 soat)

Oliy ta'lurma ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish — bu talabalarning axloqiy, diniy, milliy, va ilmiy qadriyatlar asosida to'g'ri tarbiya olishlari uchun muhim omil hisoblanadi. Bu jarayonning asosiy maqsadi talabalarga faqat ilmiy bilimlarni berish emas, balki ularni ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy va madaniy jihatdan kamol topgan shaxslar qilib tarbiyalashdir. Oliy ta'lum muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishning normativ huquqiy asoslari muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular ta'lum jarayonida talabalarning ruhiy va axloqiy tarbiyasini shakllantirishga, ularning jamiyatda to'g'ri o'rin egallashiga yordam beradi.

2-MAVZU: OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNI TASHKIL ETISHDAGI DOLZARB VAZIFALAR. (6 soat)

Oliy ta'lum muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish o'quv jarayonining muhim tarkibiy qismidir. Bu ishlar talabalarni faqat bilim bilan ta'minlab qolmay, balki ularning shaxsiy va ijtimoiy jihatdan rivojlanishini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni o'zlashtirishini ta'minlashga xizmat qiladi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni samarali tashkil etishning dolzarb vazifalari talabaning ijtimoiy, axloqiy va ma'naviy jihatdan yetuk shaxs bo'lib kamol topishiga yordam beradi. Oliy ta'lum muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish bir qancha muammolarni yuzaga keltiradi. Ushbu muammolarni tahlil qilish orqali, ularni hal etish yo'llarini aniqlash mumkin.

SEMINAR-TRENING MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-MAVZU: OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNI TASHKIL ETISHDAGI DOLZARB VAZIFALAR. (2 soat)

Ma’naviyat va ma’rifat aql-zakovat, salohiyat yuksakligining muhim mezoni va manbai hisoblanadi. Bu orqali inson millat mahsulini millat va mamlakatning yuksak moddiy va ma’naviy boyliklari darajasiga ko‘taradi. Ma’naviyat va ma’rifat davlat ichki hayotida tinchlik, barqarorlikni vujudga keltiradi, har qanday munozarali masalalarni aql va vazminlik bilan hal qilishda xalq ruhiyatini shakllantiradi.

2-MAVZU: OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNI TASHKIL ETISHDAGI MUAMMO VA ULARNING YECHIMLARI.(2 soat)

Oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish bir qancha muammolarni yuzaga keltiradi. Ushbu muammolarni tahlil qilish orqali, ularni hal etish yo‘llarini aniqlash mumkin.

3-MAVZU: MAFKURAVIY XURUJLARGA QARSHI MILLIY G‘OYA ASOSIDA BIRGALIKDA KURASHISHDA MA'NAVIY TARBIYANING UZVIYLIGINI TA'MINLASH.(2 soat)

Har qanday millatning taraqqiyoti jamiyatdagi yoshlar qatlaming milliy g‘oya va m’naviy qadriyatlarga munosabati, uning yoshlar ongi, qalbi va ichki dunyosiga qanday ta’sir etayotganligiga hamda amaliy faoliyatlariga qanday tarzda tayanishlariga bevosita bog‘liq. Shunday ekan, yoshlarning milliy g‘oyani anglashi, ishonch va e’tiqodiga aylanishi, qanday yangi qadriyatlar shakllantirilganligi bilan ham bog‘liq bo‘ladi. Chunki milliy g‘oya bir tomondan yoshlarni o‘zining ob’yekti sifatida qarasa, ikkinchi tomondan yoshlar miliy g‘oyaning ilg‘or rivojlantiruvchilari va kelajak avlodga yetkazuvchilari hisoblanadilar. Uchinchidan, yoshlar qanchalik milliy g‘oya bilan qurollangan va uni anglab olgan bo‘lsa jamiyat shunchalik taraqqiyotga erishadi; Bu holat milliy g‘oya va yoshlarning o‘zaro bog‘liqligini belgilaydi.

4-MAVZU: IJTIMOIY MEDIA VOSITALARI VA ULARNING TA'LIMDA QO‘LLANILISHI. (4 soat)

Ijtimoiy media, insonlar orasida ma'lumot almashish, fikr almashish va axborotni ommaviy tarqatish imkonini beruvchi kommunikatsiya vositasi yoki tizimi sifatida taniladi. Bu tizim ijtimoiy tarmoqlar, telekanallar, radio, yangilik portallari, bloglar, veb-saytlar, forumlar va boshqa axborot vositalari orqali olib boriladi. Ijtimoiy media, jamiyatda hodisalar, yangiliklar, fikrlar va axborotlarni tarqatish, almashish, va ularga munosiblik yaratishda muhim rol o'ynaydi. Bu platformalar, foydalanuvchilarga bir-biriga yo'naltirilgan axborotlar, rasm, videolar, matnlar va boshqa turlardagi kontentlarni ularish imkonini beradi. Bugun biz ta'lim muassasalari ushbu ishlanmalarni o'z tizimlariga moslashtirib, talabalar hayotini yaxshilash uchun guruh resurslari va mexanizmlariga tayanayotganini ko'rishimiz mumkin. Ta'limda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish o'quvchilar, o'qituvchilar va ota-onalarga ko'proq foydali ma'lumotlar olishga, o'quv guruhlari va ta'limni osonlashtiradigan boshqa ta'lim tizimlari bilan bog'lanishga yordam beradi. Ijtimoiy tarmoq vositalari talabalar va muassasalarga ta'lim usullarini yaxshilash uchun ko'plab imkoniyatlarni taqdim etadi. Ushbu tarmoqlar orqali biz almashish va o'zaro aloqani ta'minlaydigan ijtimoiy media dasturlarini o'rnatishimiz mumkin.

TAJРИBA ALMASHISH

Tajriba almashish yetakchi oliy ta'lim muassasalarida amaliy mashg'ulot tarzida tashkil etiladi.

1-TAJРИBA ALMASHISH MASHG'ULOTI: OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNI TASHKIL ETISHDAGI DOLZARB VAZIFALAR (2 soat)

Tinglovchilar Oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yuzasidan o'zaro fikr, tajriba almashadilar.

2-TAJРИBA ALMASHISH MASHG'ULOTI: MAFKURAVIY XURUJLARGA QARSHI MILLIY G'OYA ASOSIDA BIRGALIKDA KURASHISHDA MA'NAVIY TARBIYANING UZVIYLIGINI TA'MINLASH (2 soat)

Tinglovchilar Mafkuraviy xurujlarga qarshi milliy g'oya asosida birgalikda kurashishda ma'navit tarbiyaning ahamiyati yuzasidan jajriba almashadilar

3-TAJRIBA ALMASHISH MASHG‘ULOTI: IJTIMOIY MEDIA VOSITALARI VA ULARNING TA’LIMDA QO‘LLANILISHI (2 soat)

Tinglovchilar ijtimoiy media vositalarining ta’limda qo‘llanilishi yuzasidan fikr almashadilar

O‘QITISH SHAKLLARI

Mazkur modulning ma’ruza va seminar-trening mashg‘ulotlarini o‘qitishda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- ma’ruza mashg‘ulotlari (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, motivatsiyani rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);

- seminar-trening mashg‘ulotlari davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini rivojlantirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);

- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).



II. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

II. NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-MA'RUDA: OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNI TASHKIL ETISHNING NORMATIV HUQUQIY ASOSLARI.

Reja:

- 1.1 Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va unda insonni qadrlash masalalari
- 1.2 Oliy ta'linda ma'naviy ma'rifiy ishlarni tashkil etish masalalari
- 1.3 Oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda tayaniladigan normativ huquqiy asoslar

Tayanch tushunchalar: *ma'naviy-ma'rifiy ishlar, madaniy tadbirlar, ma'naviyat, ma'rifat, ijod, inson qadri, tarbiya, ma'naviy ehtiyoj, kreativ yondoshuv, estetik ehtiyoj*

1.1 Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va unda insonni qadrlash masalasi

Yangilanyotgan O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ishlar ko'lami kundan kunga kengayib bormoqda. Davlatimiz rahbarining say-harakatlari, tashabbuslari bilan shiddat bilan taraqqiyot sari intilish, O'zbekiston hayotida misli ko'rilmagan darajadagi rivojlanishning yuksak pog'onalarini ko'rib guvohi bo'lib turibmiz. Insonlarning tinch-hotirjam yashashi, ularning manfaatlarini himoya qilish, yurtimizni jahon arenasiga chiqarish, obro'yini ko'tarish, Prezidentimizning ta'birlari bilan aytganda, "xalqni rozi qilish" yo'lida qilinayotgan barcha ishlar, islohotlar jamiyatimiz taraqqiyotida muhim strategik masala sifatida qaralmoqda. O'zbekistonni yanada rivojlantirishning Harakatlar Strategiyasida belgilangan beshta, uning uzviyligini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladigan yettita ustivor yo'naliishlarda belgilangan vazifalar va bunda ko'zda tutilgan maqsadlarning barchasining markazida "INSON"ning turishi, bir so'z bilan aytganda, chiqarilayotgan barcha xujjatlarning mazmunida shu yurtda yashayotgan xalqimizning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, ularning farovon turmush tarzini yaxshilash, insonlar mehnatini qadrlash, yurtimizning jahon hamjamiyati oldida nufuzi, obro'yini oshirish va boshqa ulug' maqsadlar qo'yilganligidan dalolat berib turibdi.

Bunday ulug' ishlarni amalga oshirishda ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning ahamiyati beqiyosdir. "Ma'naviy-ma'rifiy faoliyat - bu insonlarning ma'naviy, ma'rifiy,

ahloqiy qarashlariga oid tushunchalarni qamrab oladigan jarayonlardan hisoblanib, aniq reja asosida o‘tkaziladigan tadbirlar asnosida amalga oshiriladigan ishlar majmuasidir”. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar haqida olimlarimiz juda turli xil fikrlarni aytib o‘tganlar. Madaniy oqartuv ishlari, madaniy-ma’rifiy ishlar, ma’naviy-ma’rifiy ishlar, madaniy tadbirlar kabi nomlar bilan atalib kelingan. Ushbu sanab o‘tilganlarning barchasi deyarli bir xil mazmunga ega, ammo hozirgi kunga kelib asosan “ma’naviy ma’rifiy ishlar” deb yuritish an’anaga aylangan. Yurtimizda ma’naviy-ma’rifiy ishlarga juda katta strategik masala sifatida qaralib kelinmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning deyarli barchasi shu yurtda istiqomat qilayotgan insonlarning orzu-istiklalarining ro‘yobi uchun qilinayotgan ishlardir, deb qarasak, bizningcha to‘g‘ri bo‘ladi. Barkamol avlod, komil inson, yosh avlod tarbiyasi kabi vazifalar aynan ma’naviy-ma’rifiy faoliyatni tashkil etish orqali amalga oshiriladigan jarayonlardir. Bu jarayonlarning barchasini markazida insonlarning farovon hayot kechirishlari, xalqimizni ehtiyojlarini qondirish, ularning yaxshi yashashi, sharoitlarini yaxshilash kabi vazifalar yotadi. Ayniqsa, yoshlar tarbiyasida bu faoliyatning muhimligini unutmasligimiz lozim. Zero, davlatimiz rahbari aytib o‘tganlaridek, “barkamol avlodni shakllantirish, yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismonan sog‘lom etib tarbiyalash, ularni olib borilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirish“ kabi masalalar ma’naviy-ma’rifiy soha xodimlari oldidagi katta ma’suliyat yuklaydi. Hammamizga ma’lumki, “ma’naviyat” va “ma’rifat” tushunchalarining ko‘pincha birgalikda qo‘llanishi ma’naviy-ma’rifiy ishlarda ta’lim va tarbiya uyg‘unligini nazarda tutadi. Ayniqsa, ta’lim muassasalarida buning ahamiyati, dolzarbliyi yuz barobarga oshadi. Aytib o‘tganimizdek, ma’naviyat bevosita ma’rifat tushunchasi bilan uzviy bog‘liqdir. Chunki, bilish orqali juda ko‘p muammolarni bartaraf qilish mumkin. Manbalarda, “**Ma’rifat** (arabcha «arafa» - «bilmoq» so‘zidan) - ta’lim-tarbiya, iqtisodiy, siyosiy, falsafiy, diniy g‘oyalar majmui asosida kishilarning ong-bilimini, madaniyatini o‘sirishga qaratilgan faoliyat” deb berilgan. “Ma’rifat” tushunchasi bilish, bilim, ma’lumot, tanish, tanishish ma’nolarida ham qo‘llanilib kelinmoqda. Darhaqiqat, uning ma’nosi bilimdir. Atama sifatida esa u tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli-tuman bilimlar,

ma'lumotlar majmuasini bildiradi. Ma'rifat degani bilimli, muayyan sohada ma'lumoti bor, degani bo'lib, insonparvarlik ma'naviyati zaminidagina o'z mohiyatiga ega bo'ladi. Kishilarning bilimini, madaniyati oshirishga qaratilgan ta'lim-tarbiyaga ham ma'rifat deb ham qaraladi. Bu so'z ilm-u urfon ma'nolarida ham ishlatiladi. Ma'rifat tushunchasi kengroq ma'noda qo'llanilib, bilim va ma'naviyatni yoyish va yuksaltirishning hamma turlari va sohalarini o'zida mujassam qilgan. Bu ikki sermazmun tushunchalarning birga qo'llanishi ta'lim-tarbiya masalalarining barcha jihatlarini, odob, ahloq, tarbiya, o'qish, bilim olish, o'rganish, mutolaa qilish, ilmlli bo'lish, jamiyatga nafi tegadigan inson bo'lish va h.k. kabi qarashlar, fikrlarni o'zida qamrab oladi. O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy sohalar qatorida ma'naviy-ma'rifiy ishlarga ham alohida o'rin berilgan. Jumladan, 2021-yil 6-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining lavozimga kirishishiga bag'ishlangan tantanali marosimida Shavkat Mirziyoyev kelgusi besh yilga mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlar haqida so'zlagan nutqlarida "Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot strategiyasi sari" degan tamoyilni asosiy g'oya va bosh mezon sifatida ilgari surganda, uni tinglagan, eshitgan har bir inson keyingi amalga oshiriladigan islohotlarda millat, yurt va Vatan taraqqiyotini his etdi. Taraqqiyot strategiyasida jamiyatni yanada rivojdantirish uchun muhim bo'lgan barcha siyosiy, iqtisodiy, xuquqiy masalalar bilan bir qatorda ma'naviy va ma'rifiy masalalarning qo'yilishi ham ushbu sohaning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini belgilaydi. Taraqqiyot strategiyasida inson qadrini ulug'lash, erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish, adolat va qonun ustuvorligini mustahkamlash, inson qadr-qimmatini ta'minlash, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish,adolatl ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirishning eng muhim omili hisoblangan sifatli ta'lim-tarbiya masalasi, ma'naviy va ma'rifiy sohani rivojlantirish, ekologik tahdidlarning salbiy ta'siri, mamlakatimizdag'i tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish⁴ kabi masalalar kun tartibiga qo'yilgan bo'lib, bunda inson, uning qadr-qimmati, jamiyatda xotirjam yashashi, farzandalariga ta'lim-tarbiya berishda uning ortida davlat, Prezident turganligini his qilishi, yaxshi, farovon yashashi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilajagi haqidagi fikrlarni anglash qiyin

emas. Taraqqiyot strategiyaning beshinchi ustuvor yo‘nalishga asosan ma’naviy va ma’rifiy sohalar rivojlantirilishi haqidagi fikrlar bayon etilgan. “Shu maqsadda “Yangi O‘zbekiston - ma’rifatli jamiyat” konsepsiysi amalga oshiriladi. Madaniyat va san’atni yuksaltirish, yoshlarni sog‘lom e’tiqod ruhida tarbiyalash, millatlararo hamjihatlik va o‘zaro hurmatni mustahkamlashga ustuvor ahamiyat qaratiladi”, deydi Prezidentimiz. Darhaqiqat, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni amalga oshirishda asosiy maqsad yoshlarni bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish, ularning ma’naviy, estetik ehtiyojlarini qondirish, ma’naviy dunyosini boyitish, vatanparvarlik, fidoyilik, mehnatsevarlik hissiyotlarini rivojlantirish, jamiyat taraqqiyotida o‘z o‘rnini egallashi, kelajakda jamiyatning faol a’zosi sifatida shakllanishi, ilmli, bilimli, zukko bo‘lishi kabi ulug‘ maqsadlar qo‘yilgan. Hozirgi kunda bunday ishlar ta’lim muassasalarida bilan bir qatorda mahallalarda ham tashkil etilishi katta samara bermoqda. Mahallalalarda istqomat qilayotgan xalqimizni ma’naviy-ahloqiy tarbiyalash, ularning ma’rifiy va ijodiy qobiliyatlarini oshirish, dam olish va xordiq chiqarishini uyushtirish ham ma’naviy ma’rifiy sohalarning ijtimoiy funksiyalarini belgilab bermoqda. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev tomonidan insonlarning ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy ehtiyojlarini qondirish, xalqni rozi qilish, yashash sharoitlari, turmush tarzini yaxshilashga qaratilgan qator ishlar amalga oshirilmoqda. Insonlarning maroqli dam olishlari uchun dam olish maskanlarini, madaniyat markazlari, madaniyat va istirohat bog‘lari, teatrlar, konsert zallari, sport o‘yinlari o‘tkaziladigan maydonlar, maktab, oliy ta’lim muassasalari, ishlab chiqarish korxonalarini yangidan qurish, mavjudlarini moddiy-texnika bazasini takomillashtirish, rivojlantirish, ularni ta’mirlash va boshqa ishlar shaxsan davlatimiz rahbarining tashabbuslari, taklif va ko‘rsatmalari asosida tashkil etilmoqda. Ayniqsa, talaba yoshlarning yaxshi o‘qishlari, ularning ma’naviy, estetik ehtiyojlarini qondirish, bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishga qaratilgan turli mavzulardagi tadbirlarning tashkil etilishi talaba yoshlarning bu boradagi imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Davlatimiz rahbarining 2021-yil 26-martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ5040-son Qarori ham

ushbu faoliyatga bugungi Yangilanayotgan O‘zbekiston uchun muhim xujjatlardan biri ekanligini alohida qayd etish maqsadga muvofiqdir. Ushbu xujjatda “Bu borada olib borilayotgan muhim ishlarga qaramasdan, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalardagi yangilanishlar jarayonida ma’naviy-ma’rifiy islohotlarning samaradorligiga to‘sinq bo‘layotgan bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Ma’naviy-ma’rifiy jarayonlarni tashkil etishda yaxlit tizim mavjud emas, xalqimiz, ayniqsa yoshlarni ma’naviy tahdidlardan himoya qilish borasida yetarli darajada tashkiliy-amaliy va ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmayapti, ushbu o‘nalishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari hamda xususiy sektorning ijtimoiy hamkorligi samarali yo‘lga qo‘yilmagan. Mavjud muammolarni hal etish, ma’naviy-ma’rifiy ishlarning samarasi va ta’sirchanligini oshirish, ko‘lami va miqyosini yanada kengaytirish, mamlakat aholisi, avvalo, yoshlar qalbida amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirish, sohadagi ishlarni muvofiqlashtirishning yagona tizimini yaratish maqsadida aniq, strategik, ustivor yo‘nalishlar belgilandi. Mazkur xujjatda oila, ta’lim tashkilotlari va mahallalarda ma’naviy tarbiyaning uzviyigini ta’minalash, madaniyat, adabiyot, kino, teatr, musiqa va san’atning barcha turlari, noshirlik-matbaa mahsulotlari, ommaviy axborot vositalarida ma’naviyaxloqiy mezonlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga erishish, yoshlarimiz ongiga salbiy ta’sir etuvchi, ularni g‘oyaviy jihatdan qaram etishga yo‘naltirilgan harakatlarga qarshi samarali kurash olib borish hamda irodali, fidoyi, vatanparvar va o‘z mustaqil fikriga ega avlodni tarbiyalash bo‘yicha amaliy choratadbirlar dasturlarini ishlab chiqish⁷ kabi muhim masalalarga katta e’tibor qaratish lozimligi ta’kidlangan. Juda ko‘p hollarda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar hisobot uchun o‘tkazilishi sir emas. Tadbirlarni tashkil etishda aniq maqsadlar belgilanib, amalga oshiriladigan ishlar rejasi puxta ishlanib, insonlarning bo‘sh vaqtlarini hisobga olgan holda tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Ma’naviy-ma’rifiy ishlar sifatiga erishish uchun tadbirlar saviyasini ko‘tarish haqida bosh qotirish lozim. Masalan, davra suhbatini olaylik. Odam savdosiga qarshi kurash mavzusi bo‘yicha tadbir o‘tkaziladigan bo‘lsa, ma’ruzachi undagi faktlarni faqat aytib berish bilan chegaralansa, ya’ni (ma’ruzani o‘qib yoki tushuntirib bersa)

bu tinglovchida hech qanday hissiyotlarni uyg‘otmasligi mumkin. Bunda turli metod va vositalardan to‘g‘ri va oqilona foydalanish - tadbirning sifat samaradorligiga erishishiga olib keladi. Bu yerda “tadbirni quruq ma’ruzani o‘qish bilan emas, balki isbotlangan faktlar bilan, turli ko‘rgazmalar, xujjatli filmlar, videoroliklar, sahna ko‘rinishlari, shu mavzularga oid kuy va qo‘shiqlar uyg‘unligida o‘tkazilsa, uning ta’sirchanligi va sifat darajasi oshadi hamda tinglovchi yoki tomoshabinning ongiga ijobjiy ta’sir qiladi. Bunda ishontirish metodidan foydalanish mumkin, ya’ni chet ellarga, ya’ni o‘zga yurtlarga borib, ko‘p pul topishni istagan yoshlarga buning hammasi safsata ekanligiga ishontirish, u yerdagi shart-sharoit va ahvolning naqadar ayanchli ekanligini ko‘rsatish (film, sahna ko‘rinish orqali yoki aynan ana shunday sharoitlarga tushib qolgan insonlar o‘zлari gapirib bersalar), o‘z yurtining qadrigayetish kabi vazifalarni qo‘ygan holda taqdim etilishi ko‘pchilikning to‘g‘ri xulosa chiqarishiga sabab bo‘la oladi8, deyish mumkin. Bitta tadbirni o‘tkazgan bilan inson o‘zgarib yoki tarbiyalanib qolmaydi. Buning uchun tizimli ishlarni amalgalashirish zarur. Tadbir tashkilotchilari badiiy jihatda mukammal ssenariyni yaratish, uni sahnaga ko‘chirish qonuniyatlarini yaxshi bilishi talab etiladi. Faqat kuy, qo‘shiq yoki raqlardan iborat tashkil etilgan tadbirlar yaxshi samara bermasligi mumkin. Tadbirni g‘oyaviy jihatdan aniq maqsadlarga yo‘naltirish, tinglovchi yoki tomoshabinlarning didiga mos tarbiyaviy manbalardan foydalanish, bir so‘z bilan aytganda, ma’naviy, estetik ehtiyojlarini qondirishga qaratilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

1.2 Oliy ta’limda ma’naviy ma’rifiy ishlarni tashkil etish masalalari

Oliy ta’limda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish — bu talabalarning axloqiy, diniy, milliy, va ilmiy qadriyatlar asosida to‘g‘ri tarbiya olishlari uchun muhim omil hisoblanadi. Bu jarayonning asosiy maqsadi talabalarga faqat ilmiy bilimlarni berish emas, balki ularni ijtimoiy, ma’naviy, axloqiy va madaniy jihatdan kamol topgan shaxslar qilib tarbiyalashdir. Oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni samarali tashkil etish uchun quyidagi asosiy jihatlarga e’tibor qaratish zarur:

1. Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy yo‘nalishlari. Oliy ta’limda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishda asosiy e’tibor talabalarda quyidagi fazilatlarni shakllantirishga qaratiladi:

- **Insonparvarlik va ahloqiy qadriyatlar:** Talabalar axloqiy jihatdan to‘g‘ri va adolatli qarorlar qabul qilishni o‘rganadilar.
- **Milliy va diniy qadriyatlar:** O‘zbekistonning boy tarixiy, milliy va diniy merosiga hurmatni shakllantirish.
- **Inson huquqlari va erkinliklari:** Talabalar ijtimoiy adolat, huquqiy madaniyat va demokratiya haqida tushunchalarga ega bo‘lishlari kerak.
- **Ekologik va ijtimoiy mas’uliyat:** Talabalar jamiyat oldidagi o‘z mas’uliyatlarini his qilishlari, tabiatni asrash va barqaror rivojlanishga hissa qo‘shishlari lozim.

2. Pedagogik texnologiyalar va metodlar. Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni samarali tashkil etish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish kerak. Bu o‘z ichiga:

- **Seminarlar, davra suhbatlari va ma’naviy tadbirlar:** Talabalar o‘rtasida ijtimoiy va axloqiy muammolarni muhokama qilish, ular bilan ijtimoiy mas’uliyatni oshirish.
- **Ko‘rgazmalar, konkurslar, va ko‘ngilochar tadbirlar:** Yoshlarni ijodiy va ma’naviy jihatdan rivojlantirish.
- **Aqliy va ma’naviy o‘yinlar:** Talabalarga fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

3. Ma’naviy-ma’rifiy ishlarning tizimlashganligi. Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishda tizimning yagona va muvofiqlashtirilgan bo‘lishi zarur. Buning uchun universitetlar va institutlar o‘zlarining maxsus bo‘limlarini tashkil etishlari kerak, masalan:

- **Ma’naviy-ma’rifiy ishlari bo‘limi:** Ushbu bo‘lim talabalar bilan axloqiy va ma’naviy ishlarni olib boradi.
- **Jamoat tashkilotlari va yoshlar ittifoqlari:** Talabalar o‘rtasida jamiyatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan faoliyatni tashkil etadi.
- **Diniy va madaniy tadbirlar:** Talabalarni ma’naviyatga oid ilmiy va amaliy faoliyatga jalb qilish.

4. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari va davlat dasturlari. Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishning huquqiy asoslari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Oliy ta’lim to‘g‘risidagi qonun", "Ma’naviy-axloqiy tarbiya to‘g‘risidagi davlat dasturi", "Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiysi" kabi normativ hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Ushbu hujjatlar ta’lim muassasalariga ma’naviyatni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan me’yorlarni belgilaydi.

5. Talabalar o‘rtasida hamkorlik va integratsiya. Talabalar o‘rtasida jamoaviy faoliyatni rivojlantirish va axloqiy normalarni kuchaytirish maqsadida quyidagilarni amalga oshirish mumkin:

- **Xalqaro hamkorlik:** O‘zbekistonning xalqaro ta’lim tizimlaridagi hamkorliklari orqali talabalarga boshqa mamlakatlarning madaniy va axloqiy qadriyatlarini o‘rganish imkoniyatlarini yaratish.
- **Ijtimoiy va xayriya tadbirlari:** Talabalarni jamiyatga foydali ishlarga jalb qilish, xayriya faoliyatini amalga oshirish.

6. Psixologik va ruhiy yordam. Talabalar o‘rtasida psixologik va ruhiy yordam xizmatlarini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Oliy ta’lim muassasalarida psixologik markazlar tashkil etib, talabalar o‘zlarining ruhiy holatini yaxshilashlari va stressni boshqarish bo‘yicha maslahatlar olishlari mumkin.

7. Oliy ta’limda ma’naviy-ma’rifiy ishlarning monitoringi va baholanishi. Ma’naviy-ma’rifiy ishlarning samaradorligini baholash uchun tizimli monitoring o‘rnatish zarur. Bu jarayonda:

- **Talabalar so‘rovnomalari:** Talabalarning fikrlarini tinglash va ular bilan fikr almashish.
- **O‘qituvchilar va rahbarlar bilan maslahatlar:** Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni samarali tashkil etish uchun pedagogik jamoaning fikrlarini olish.
- **Tadqiqotlar va ilmiy ishlanmalar:** Ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayonining samaradorligini ilmiy asosda o‘rganish va takomillashtirish.

1.3. Oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishda tayaniladigan normativ huquqiy asoslar

Oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishning normativ huquqiy asoslari muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular ta’lim jarayonida talabalarning ruhiy va axloqiy tarbiyasini shakllantirishga, ularning jamiyatda to‘g‘ri o‘rin egallashiga yordam beradi. Ushbu asoslar quyidagi normativ huquqiy hujjatlar orqali amalga oshiriladi:

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: Oliy ta’lim sohasida ma’naviy-ma’rifiy ishlar o‘zbekistonning konstitutsiyaviy asoslariga, jumladan, jamiyatda inson huquq va erkinliklariga, tenglikka va adolatga asoslanadi.

Oliy ta’lim to‘g‘risidagi qonun: Oliy ta’lim tizimi haqida qabul qilingan qonunlar, o‘quv muassasalaridagi ta’lim sifatini oshirish va ma’naviy-axloqiy tarbiyani kuchaytirish maqsadida normativ huquqiy asoslarni belgilaydi. Ushbu qonunlar doirasida talabalarga ma’naviy va axloqiy tarbiya berishning zarurati hamda uning amalga oshirilishining tartibi ko‘rsatilgan.

“O‘zbekiston Respublikasida ma’naviyatni rivojlantirish konsepsiysi”: Ushbu konsepsiya ma’naviy-ma’rifiy ishlarni amalga oshirishda asosiy yo‘nalishlarni belgilaydi. U o‘zida yoshlarni jamiyatga foydali, axloqiy jihatdan sog‘lom, insonparvar va ma’naviyatli shaxslar qilib tarbiyalashni ko‘zda tutadi.

Oliy ta’lim muassasalarining ichki hujjatlari (ustavlar, nizomlar): Oliy ta’lim muassasalarining ichki tartib-qoidalari va nizomlari, shuningdek, universitet va institutlarda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishda aniq ko‘rsatmalar beradi. Bu

hujjatlar o'quv jarayonini va talabalarning jamiyatdagi faoliyatini muvofiqlashtirishga yordam beradi.

"Ma'naviy-axloqiy tarbiya to'g'risida"gi davlat dasturlari: Davlat dasturlari orqali, oliy ta'lif muassasalarida axloqiy va ma'naviy tarbiya berish, bu borada talabalar bilan ishlashning usullari va metodlari ishlab chiqilgan. Bu dasturlar, shuningdek, oliy ta'lif muassasalarida ijtimoiy faoliyat, madaniyat, diniy va axloqiy qadriyatlar targ'iboti hamda ta'lif jarayonida qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalarni o'z ichiga oladi.

Milliy va xalqaro me'yorlar: O'zbekistonning xalqaro konvensiyalarga qo'shilishi, o'quv muassasalarining axloqiy, huquqiy va ijtimoiy me'yorlarga amal qilishini ta'minlaydi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi turli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda talabalarga ma'naviy-axloqiy tarbiya berish bo'yicha tajriba almashadi.

Jamoat tashkilotlari va hukumat idoralari tomonidan ishlab chiqilgan normativ hujjatlar: Jamoat tashkilotlari, yoshlar ittifoqlari va boshqa ijtimoiy tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan hujjatlar ham oliy ta'lif muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan. Bu hujjatlar ijtimoiy mas'uliyatni oshirish, yoshlarni mafkuraviy, ma'naviy va axloqiy jihatdan tarbiyalashga qaratilgan.

Shu bilan birga, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni Oliy ta'lif muassasalarida faqatgina axloqiy jihatlarni o'rgatish bilan cheklanmay, balki talabalar o'rtasida gumanitar fanlar bo'yicha bilimlarni mustahkamlash, ularni inson huquqlari, ekologiya, siyosatshunoslik,adolat, barqaror rivojlanish kabi masalalarda bilimlarga ega bo'lishlarini ta'minlashni o'z ichiga oladi.

Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiysi. (Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-sod qarori) Bu konsepsiya 8 bobdan iborat bo'lib, jamiyatda insonlarning ma'naviy rivojlanishi uchun zarur bo'lgan asosiy qadriyatlarni ta'lif jarayonida uzluksiz ravishda shakllantirishni ta'minlaydi. Oliy ta'lif muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni samarali tashkil etishda ushbu konsepsiyaning ahamiyati

katta, chunki u shaxsnинг ijtimoiy, axloqiy va madaniy rivojlanishini ta’minlashga yo‘naltirilgan. Quyida uning ahamiyatini batafsil tushuntirib o‘tamiz:

1. Ma’naviy tarbiyaning uzluksizligi

Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiysi talabalar uchun ta’limning barcha bosqichlarida (maktabdan oliy ta’limgacha) uzluksiz ravishda amalga oshiriladi. Oliy ta’limda bu:

Talabalar o‘zlarining axloqiy va ma’naviy qadriyatlarini, ijtimoiy mas’uliyatni ta’lim jarayonida uzluksiz ravishda o‘zlashtiradilar.

Ma’naviy tarbiya faqat darslar bilan cheklanib qolmaydi, balki talabalarning kundalik faoliyatini, ijtimoiy muhitini, madaniy tadbirlarni, sport va ilmiy ishlarda ham amalga oshiriladi.

2. Shaxsni yaxlit rivojlantirish

Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiysi shaxsni nafaqat ilmiy jihatdan, balki axloqiy va ma’naviy tomonlardan ham rivojlantirishga qaratilgan. Oliy ta’limda bu:

Talabalar faqatgina kasbiy bilimlarni o‘zlashtirib qolmay, balki jamiyatda o‘z o‘rnini to‘g‘ri belgilash, ijtimoiy mas’uliyatni his qilish, halol va adolatli bo‘lish kabi qadriyatlarni o‘rganadilar.

Talabalarga har tomonlama rivojlanish imkoniyati yaratilib, ular nafaqat ilmiy, balki ijtimoiy va axloqiy mas’uliyatni anglashadi.

3. O‘quv jarayonining integratsiyasi

Uzluksiz ma’naviy tarbiya ta’limning barcha jihatlarini o‘z ichiga oladi. Oliy ta’limda bu:

Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni barcha o‘quv fanlari bilan integratsiya qilishni anglatadi. Masalan, gumanitar fanlar, jamiyatshunoslik, tarix va falsafa kabi fanlarda ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni hamda inson huquqlari, barqaror rivojlanish kabi masalalar o‘rganiladi.

Talabalar har bir fan doirasida nafaqat ilmiy bilimlarni, balki ushbu fanlarning ijtimoiy va ma’naviy muammolarini qanday hal qilishni o‘rganadilar. Bu esa ularni keng dunyoqarashga ega, axloqiy mas’uliyatli insonlarga aylantiradi.

4. Ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirish

Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiysi talabalarni axloqiy va ma’naviy qadriyatlar asosida tarbiyalashga qaratilgan. Oliy ta’limda bu:

Talabalar, faqat akademik bilimlar bilan birga, jamiyatda to‘g‘ri va adolatli qarorlar qabul qilish, ijtimoiy muammolarni hal qilishga tayyor bo‘ladilar. Ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, talabalarga qanday qilib jamiyatga foyda keltirish, xohish va ehtiyojlarni muvozanatlash, inson huquqlarini hurmat qilishni o‘rgatadi.

5. Shaxsiy va ijtimoiy mas'uliyat

Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiysi talabalar o‘rtasida ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantiradi. Oliy ta’limda bu:

Talabalar o‘z faoliyatlarini jamiyat va atrof-muhit uchun foydali bo‘lishi kerakligini tushunib, ijtimoiy tadbirdorda ishtirok etadilar, xayriya ishlari va ijtimoiy loyihalarda qatnashadilar. Ular o‘z qarorlarini faqat shaxsiy manfaatlarga asoslamasdan, balki keng ijtimoiy nuqtai nazardan, axloqiy tamoyillarga asoslanib qabul qiladilar.

6. Pedagogik va psixologik yondashuvlar

Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiysi o‘qituvchilarga talabalar bilan ma’naviy-ma’rifiy ishlarni samarali tashkil etish bo‘yicha metodik yondashuvlar taklif qiladi. Oliy ta’limda bu:

Pedagogik jarayonda talabalarga individual yondashuvni qo‘llash, ularning ehtiyojlarini, qiziqishlarini va muammolarini inobatga olish.

Psixologik yordam va maslahatlar orqali talabalar o‘zlarini va boshqalarni yaxshiroq anglashadi, stressni yengish va ma’naviy-axloqiy qiyinchiliklarni hal qilishda yordam oladilar.

7. Madaniy va diniy qadriyatlarni targ‘ib qilish

Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiysi talabalarni o‘z milliy va diniy qadriyatlarni hurmat qilishga, shu bilan birga, boshqa madaniyatlar va dinlarga hurmat ko‘rsatishga o‘rgatadi. Oliy ta’limda bu:

Talabalar o‘z milliy an‘analari va qadriyatlarni bilib, ularni boshqalar bilan muloqotda muvozanatli va hurmatli tarzda namoyon etadilar.

O‘zbekistonning diniy va madaniy merosini o‘rganish, shuningdek, turli xalq va madaniyatlar o‘rtasida tinchlik va hamjihatlikni ta’minlashga yo‘naltirilgan tarbiya shakllantiriladi.

Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiysi Oliy ta’limda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishda alohida ahamiyatga ega, chunki u talabalar uchun axloqiy va ma’naviy jihatdan mukammal shaxslarni tarbiyalashga yo‘naltirilgan tizimli va uzluksiz jarayonni ta’minlaydi. Ushbu konsepsiya nafaqat bilim berish, balki talabalarни jamiyatda faol, mas’uliyatli va axloqiy to‘g‘ri qarorlar qabul qilishga tayyorlashga xizmat qiladi. Oliy ta’limda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishning samarali bo‘lishi, nafaqat talabalar, balki jamiyat uchun ham foydali natijalarga olib keladi.

Nazorat savollari:

1. Ma’naviy-ma’rifiy faoliyat deganda nimani tushunasiz?
2. Nima uchun ma’naviyat va ma’rifat tushunchalari birgalikda qo‘llaniladi?
3. Yoshlar tarbiyasida ma’naviy-ma’rifiy ishlarning ahamiyati qanday?
4. Oliy ta’limda asosiy e’tibor talabalarda qaysi fazilatlarni shakllantirishga qaratiladi?
5. O‘zbekiston Respublikasining ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishga oid qanday qonunlari va davlat dasturlarini bilasiz?
6. Talabalar o‘rtasida jamoaviy faoliyatni rivojlantirish va axloqiy normalarni kuchaytirish maqsadida nimalarni amalga oshirish mumkin?
7. Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiysi qachon qabul qilingan?
8. Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiysi necha bobdab iborat?
9. Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasining maqsadi?
10. Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasida qaysi fazilatlarni tarbiyalash nazarda tutilgan?

2- MA’RUZA. OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLARNI TASHKIL ETISHDAGI DOLZARB VAZIFALAR.

Reja:

2.1. Oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tizimli tashkil etishning ilmiy-nazariy asoslari.

2.2 Bugungi yoshlarda tarbiyalash lozim bo‘lgan fazilatlar

2.2 Talabalarni kasbiy pedagogik ta’lim jarayonida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishga tayyorlash texnologiyasi

Tayanch tushunchalar: *ta’lim jarayoni, oliy ta’lim, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish, konsepsiya, pedagogik texnologiyalar,fazilatlar.*

2.1 Oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tizimli tashkil etishning ilmiy-nazariy asoslari.

Jahon oliy ta’lim tizimida talabalarni kasbiy ijtimoiylashtirish, ma’naviy-axloqiy va mafkuraviy kompetentligini rivojlantirish, ijtimoiy faolligi va tashabbuskorligini tarbiyalash metodikasini takomillashtirish, mafkuraviy immunitetini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, yoshlarning intellektual salohiyati, tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, xalq manfaatlari uchun xizmat qilish tuyg‘usi bilan yashaydigan barkamol avlod sifatida tarbiyalashga qaratilgan talaba-yoshlarning ma’naviy-axloqiy ongini rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish борасида respublikamiz prezidenti Shavkat Mirziyoyevich Miramonovich ҳозирги O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichiga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim

texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida: O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi farmonini tasdiqladi va ushbu farmon ayni vaqtida qabul qilingan farmonlardan ekanligiga yana bir bor amin bo'ldik. Bugungi kunda dunyo ta'lim tizimida talabalarning Ma'naviy-ma'rifiy ishlari tizimini tubdan takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari борасида dunyoning yetakchi, rivojlangan mamlakatlari Rossiya, Germaniya, Fransiya, Япония, Xitoy, Koreya kabi davlatlarida talabalaming tafakkurini o'stirish, qobiliyatlarini erta namoyon etish, ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, mafkuraviy immunitetini rivojlantirish mexanizmlari samaradorligini oshirish metodikasini takomillashtirishda muammoli o'qitish, modulli o'qitish, blended learning (aralash o'qitish), mahorat darslari, vebinarlar, evristik metodlar, virtual ta'lim texnologiyalarini qo'llash muhim o'rinn tutdi. Rivojlangan mamlakatlarнинг ta'lim tizimida talabalarning Ma'naviy-ma'rifiy ishlari tizimini o'rganish, uni mentalitetimizga mos ravishda rivojlantirish, bizning oliy maqsadimiz sifatida qarashimiz zarur. Yangi O'zbekiston sharoitida mafkuramizning tub ma'no-mazmunini belgilab beradigan ana shu maqsad bizning hayotimiz, ong-u tafakkurimizga singib, dunyoqarashimiz, amaliy harakatlarimizning asosiga aylandi va zamongamos tarzda o'zgarib bormoqda. Shu yo'lda yoshlarda mafkuraning mazmun mohiyatini to'liq shakllantirib, tarixiy ildizlarini asoslab, dunyoqarashni rivojlantirish ta'lim-tarbiyada eng muhim vazifaga aylanmog'i kerak. Ta'lim jaroyonining ajralmas bir qismi bu ma'naviy-ma'rify ishlari, tadbirlar, qadriyatlar sanaladi. Bu boradagi ishlarni yanada takomillashtirish borasida prezidentimiz 2021 yil 26 mart kuni «Ma'naviy-ma'rifiy ishlari tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida»gi qarorni imzoladi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlari tizimini tubdan takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari etib quyidagi vazifalar belgilandi:

- «Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari» g'oyasini keng targ'ib etish orqali jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish;
- oila, ta'lim tashkilotlari va mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash;
- targ'ibot-tashviqot va tarbiya yo'nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, soha bo'yicha ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini

oshirish, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini joriy qilish; • el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, korrupsiya, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik va yoshlar tarbiyasiga mas'uliyatsizlik kabi illatlarga barham berishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish; • aholining Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanish madaniyatini oshirish, g‘oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish; • madaniyat, adabiyot, kino, teatr, musiqa va san'atning barcha turlari, noshirlikmatbaa mahsulotlari, ommaviy axborot vositalarida ma'naviy-axloqiy mezonlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga erishish; • geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarni muntazam o‘rganish, terrorizm, ekstremizm, aqidaparastlik, odam savdosi, narkobiznes va boshqa xatarli tahdidlarga qarshi samarali g‘oyaviy kurash olib borish hamda bu borada xalqaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish. Mazkur vazifalarni amaliyotga joriy etishda pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va shu asosida oily ta’lim muassasalarida mashg‘ulotlarni tashkil etish lozim. Shunga muvofiq xalq xo‘jaligini bu sohalari uchun kadrlar tayyorlab beradigan mutasaddi tashkilotlar o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi, oliy ta’lim o‘quv-tarbiya jarayonini yangicha tashkil qilish muammosini hal qilishga bog‘liqdir. Buning yagona yo‘li zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta’lim-tarbiya jarayoniga keng qo‘llash orqali echiladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish ham dolzarb muammo hisoblanadi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, ta’lim-tarbiya jarayonini ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilish, ma’naviy-ma’rifiy ishlar, dars, darsdan tashqari mashg‘ulotlarni yangicha ijodiy asosda tashkil qilish zarur. Eng muhimi har bir pedagog, rahbar ta’limni yangi metodologik asosda tashkil qilishning tub mohiyatini tushunmog‘i lozim. Yangicha ta’lim eski andozalar asosida olib borilishi mumkin emas. Bundan tashqari ta’limni yangicha tashkil qilishning ilmiy-metodik asoslarini, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning zaruriy shart-sharoitlarini bilish ham muhim. Shundan kelib chiqib, mamlakatimizda "Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qaror asosida islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Bu jarayonlar xalqaro miqyosda e’tirof etilib, o‘zining natijasini

bermoqda. Oqibatida O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi ancha tezlashdi. Lekin uning kelgusi taraqqiyoti omillarini inobatga olish jahon ta’lim amaliyotida qo‘llanilayotgan yangi va ilg‘or fan yutuqlaridan keng foydalanishni taqozo etadi. Chunki zamonaviy texnologiyalar ta’lim oluvchilarining intellektual, ijodiy va axloqiy kamolotining zaruriy sharti hisoblanadi. Faqat shu asosda rivojlanish uzlucksiz ta’lim tizimining hamma bo‘g‘inlarida pedagogik jarayonning chuqur mohiyatini tashkil qiluvchi asosi y tushunchaga aylandiki, uning harakatlantiruvchi kuchi zamonaviy pedagogik texnologiyalardir.. Ta’lim islohotimizda jahon ta’limi rivojlanishining ijobiy xususiyatlarini ta’limni amaliy - inson hayoti, shaxsga yo‘nalganlik tajribasini va uni rivojlantirishning muhim vositasi zamonaviy pedagogik texnologiyalar ekanligi asosida uni rivojlanishi asosiy yo‘nalishlarini belgilash muhim hisoblanadi. Islohot oqibatida ta’lim tizimimiz rivojini jahonga yo‘naltirish - yana juda bir muhim vazifa - ta’lim rivojini bozor munosabatlariga moslashtirishning tajribasidan unumli foydalanishdir

2.2 Bugun yoshlarda tarbiyalash lozim bo‘lgan fazilatlar

Bugungi kunda yoshlarda tarbiyalash lozim bo‘lgan fazilatlar juda muhim, chunki ular jamiyatning kelagi va rivojlanishida katta rol o‘ynaydi. Zamonaviy dunyoda yoshlarga faqat ilmiy bilimlar emas, balki axloqiy, ma’naviy, ijtimoiy fazilatlar ham zarur. Quyidagi fazilatlar, ayniqsa, yoshlarga tarbiyalashda e’tibor qaratilishi kerak:

1. Halollik vaadolat:

Halollik va adolatli bo‘lish — jamiyatda mustahkam axloqiy me’yorlarni shakllantirish uchun juda zarur fazilatlardir. Yoshlarga o‘z so‘zida turish, haqiqatni aytish va adolatni yoqlashni o‘rgatish kerak. Bu fazilatlar nafaqat shaxsiy hayotda, balki jamiyatda ham ijobiy o‘zgarishlarga olib keladi. Bugungi kunda yoshlarda halollik va adalat fazilatlarini tarbiyalash zarurati juda katta. Sababi, jamiyatda yuzaga kelgan ijtimoiy, iqtisodiy va axloqiy muammolar, o‘zgarishlar va globalizatsiya jarayonlari yoshlarda axloqiy tamoyillarni shakllantirishni yanada

muhimroq qilmoqda. Yoshlarda halollik va adolatni tarbiyalash, nafaqat shaxsiy hayotlarida, balki butun jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotni ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Halollik va adolatni qadrlovchi yoshlar o'zlarining hayotiy qarorlarini haqqoniy va adolatli qabul qilishadi. Bu ularning o'zgarishi va shaxsiy yuksalishi uchun zarur asos yaratadi. Jamiyatda halollik va adolatni targ'ib qilish orqali yoshlar o'zaro hurmat va ishonchni mustahkamlaydi. Bu esa jamiyatda tinchlik, barqarorlik va o'zaro hamkorlikni ta'minlaydi. Halollik va adolatni tarbiyalash, korruptsiyaga qarshi kurashishda ham muhim omildir. Yoshlar halol va adolatli bo'lishga o'rganishlari orqali kelajakda adolatsizlikka qarshi turishadi va jamiyatda yaxshilanishlarga erishiladi.

2. Mas'uliyat:

Yoshlarda mas'uliyat hissini tarbiyalash zarurati bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Mas'uliyat — bu nafaqat o'z xatti-harakatlarining oqibatlarini tushunish, balki jamiyat va atrofdagi insonlarga nisbatan burch va majburiyatni his qilishdir. Yoshlarda mas'uliyat hissini shakllantirish, ularning kelajakdagi muvaffaqiyati, shaxsiy rivojlanishi va jamiyatdagi o'rni uchun juda muhimdir. Yoshlarda mas'uliyat hissi — o'z xatti-harakatlari va qarorlari uchun javobgarlikni his qilish, o'z vaqtida va sifatli ishlarni amalga oshirishni anglatadi. Mas'uliyatli yoshlar jamiyatga, oilaga, o'quv muassasasiga va atrof-muhitga ham mas'uliyat bilan yondashadi.

3. Mehr-muhabbat va hamdardlik:

Yoshlarda mehr-muhabbat va hamdardlik fazilatini tarbiyalash zarurati bugungi kunda juda muhim, chunki bu fazilatlar nafaqat shaxsiy hayot, balki jamiyatning barqarorligi, ijtimoiyadolat va tinchlikni ta'minlash uchun ham katta ahamiyatga ega. Mehr-muhabbat va hamdardlik — bu insonning boshqalarga nisbatan samimiyl mehribonligi, tushunishi va yordam qo'lini cho'zishga tayyor bo'lishidir. Yoshlarda bu fazilatlarni shakllantirish, ularni yanada axloqiy, ma'naviy va ijtimoiy jihatdan rivojlangan shaxslar sifatida shakllantirishga yordam beradi.

4. Sabr-toqat:

Yoshlarda sabr-toqat fazilatini tarbiyalash zarurati jamiyatda barqarorlik va shaxsiy rivojlanish uchun juda muhimdir. Sabr-toqat — bu insonning stressli va qiyin vaziyatlarda, kelishmovchiliklarda va sinovlarda o‘zini boshqarish, xotirjam bo‘lish va o‘z maqsadiga erishish yo‘lida vaqt ni va kuchni sabr bilan sarflay olish qobiliyatidir. Bu fazilat, ayniqsa yoshlar uchun, turli hayotiy muammolarni hal qilishda, o‘z maqsadlariga erishishda va jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi.

Yoshlarda sabr-toqat fazilatini tarbiyalash zaruriyatining asosiy sababлari:

- 1. Hayotdagи sinovlarga qarshi kurashish:** Yoshlarda sabr-toqatni shakllantirish, ularni turli hayotiy sinovlarga, qiyinchiliklarga va muvaffaqiyatsizliklarga nisbatan ruhiy tayyorlikka olib keladi. Sabr-toqatli yoshlar, qiyinchiliklarga duch kelganda, ular bilan samarali kurashishga qodir bo‘ladilar va o‘z maqsadlariga erishish uchun kerakli vaqt ni va resurslarni qidiradilar.
- 2. Muvaffaqiyatga erishishda qat'iyatlilik:** Sabr-toqat fazilati, yoshlarni muvaffaqiyatga erishishda qat'iyatli bo‘lishga o‘rgatadi. Ko‘plab muvaffaqiyatlar sabr-toqat va mehnat bilan erishiladi. Yoshlar sabrli bo‘lishni o‘rganganlarida, ular o‘z maqsadlariga yetishish yo‘lidagi barcha qiyinchiliklarga bardosh bera olishadi.
- 3. Stress va depressiya darajasini kamaytirish:** Sabr-toqat yoshlarni hayotdagи stressli vaziyatlarga nisbatan chidamli qilishga yordam beradi. Sabrni tarbiyalash, ularni psixologik jihatdan mustahkam va salomatligini saqlashga ko‘maklashadi. Ular o‘zaro muammolarni va qiyinchiliklarni yengib o‘tishda to‘g‘ri usullardan foydalanadilar, bu esa ularni ruhiy stressdan himoya qiladi.
- 4. Ijtimoiy munosabatlarni yaxshilash:** Sabr-toqat, shuningdek, ijtimoiy munosabatlarda ham muhim rol o‘ynaydi. Yoshlarda sabrli bo‘lishni o‘rgatish, ularni boshqalar bilan to‘g‘ri va hurmatli muloqot qilishga undaydi. Sabr-toqatli yoshlar boshqa odamlarning fikr va his-tuyg‘ulariga hurmat bilan yondashadilar, bu esa munosabatlarni yanada sog‘lom va ijobiy qiladi.

5. Jismoniy va aqliy rivojlanish: Sabr-toqat nafaqat ruhiy, balki jismoniy va aqliy rivojlanish uchun ham zarurdir. Yoshlarda sabrni tarbiyalash, ularni o‘zgarishlarga tayyorlaydi, vaqtini boshqarish va o‘z maqsadlariga erishish uchun muvozanatni topishga yordam beradi. Bu, o‘z navbatida, ularning aqliy va jismoniy salomatligini mustahkamlaydi

Hayotda ko‘plab sinovlar va qiyinchiliklar bo‘lishi mumkin. Sabr-toqat, har qanday qiyinchilikka bardosh bera olish va kutishni bilish yoshlarni o‘z maqsadlariga erishishda muhim fazilatdir. Sabrli bo‘lish nafaqat shaxsiy muvaffaqiyatni, balki jamiyatda ham tinchlikni ta’minlashga yordam beradi.

5. Mehnatsevarlik va intizom:

Yoshlarga mehnatsevarlikni, o‘z vazifalarini samarali va aniq bajarishni o‘rgatish kerak. Intizomli yoshlar o‘z vaqtlarini to‘g‘ri taqsimlaydi, mehnat qilishga tayyor bo‘ladi va har bir ishni yuqori sifatda bajarishga harakat qiladi. Bu fazilatlar muvaffaqiyatga erishishda muhim omil hisoblanadi.

Yoshlarda mehnatsevarlik va intizomni tarbiyalash zaruriyatining asosiy sabablari:

- 1. Ma’naviy va axloqiy rivojlanish:** Mehnatsevarlik va intizom yoshlarning axloqiy rivojlanishini ta’minlaydi. Bu fazilatlar, yoshlarni mehnat qilishga, o‘zini o‘zi boshqarishga, o‘z xatti-harakatlariga javobgarlikni his qilishga va jamiyatda o‘z o‘rnini topishga o‘rgatadi. Mehnatsevar va intizomli yoshlar jamiyat uchun foydali bo‘lgan, ma’naviy jihatdan to‘liq shaxslar bo‘lib rivojlanadilar.
- 2. Muvaffaqiyatga erishish va maqsadlarga erishish:** Mehnatsevarlik va intizom, yoshlarni o‘z maqsadlariga erishish uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy, aqliy va jismoniy salohiyatni rivojlantiradi. Ular harakat qilishda qat’iyatli va sabr-toqatli bo‘lishni o‘rganadilar, bu esa ularni uzoq muddatli maqsadlar sari

intilishga undaydi. Shuningdek, intizomli va mehnatsevar yoshlar o‘zlarini muvaffaqiyatli va maqsadga yo‘naltirilgan shaxslar sifatida his qiladilar.

3. **Jamiyatda barqarorlik va rivojlanish:** Mehnatsevarlik va intizom jamiyatdagi iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga yordam beradi. Yoshlarda bu fazilatlar shakllanganda, ular o‘zlari uchun foydali ishlarni amalga oshirishga, jamiyatga yordam berishga va umumiylar farovonlikka hissa qo‘sishga tayyor bo‘ladilar. Mehnatsevar yoshlar o‘z yurtlariga foyda keltirish uchun mas’uliyatni his qiladilar va kelajakdagi muvaffaqiyatlar uchun qat’iyatlilik bilan ishlaydilar.
4. **Stress va xavotirni kamaytirish:** Mehnatsevarlik va intizomli yoshlar o‘z maqsadlariga erishish yo‘lida muammolarga nisbatan sabr-toqatli bo‘ladilar va ular stressni boshqarishda yaxshiroq ishlaydilar. Shuningdek, mehnat qilish va vaqt ni samarali tashkil etish, yoshlarning hissiy holatini barqarorlashtiradi va ijtimoiy muammolarga ijobiy munosabatda bo‘lishlariga yordam beradi.
5. **Yoshlarning kelajagi va ijtimoiy muvaffaqiyati:** Mehnatsevarlik va intizomli yoshlar kelajakda yaxshi mutaxassis, tadbirkor, ilm-fan sohasida yetakchi bo‘lib chiqadilar. Ular o‘z ishlarini sevib qiladilar va har bir ishda samaradorlikni oshirishga intiladilar. Mehnatsevarlik va intizom, shuningdek, yoshlarni jismoniy va aqliy jihatdan rivojlantirishga yordam beradi, bu esa ularga kelajakda ijtimoiy muvaffaqiyat va o‘z o‘rnini topishga imkon yaratadi.

6. O‘zini hurmat qilish va o‘ziga ishonch:

O‘zini hurmat qilish — o‘z qadriyatlarini, bilimlarini, imkoniyatlarini anglash va o‘ziga ishonish yoshlarning o‘z maqsadlariga erishishlariga yordam beradi. Yoshlarga o‘ziga ishonch hosil qilish, o‘ziga ehtiyyotkorlik va hurmat bilan yondashish o‘rgatilishi kerak.

Yoshlarda o‘zini hurmat qilish va o‘ziga ishonch fazilatini tarbiyalash zaruriyatining asosiy sabablari:

- Shaxsiy rivojlanish va muvaffaqiyatga erishish:** O‘zini hurmat qilish va o‘ziga ishonch yoshlarning shaxsiy rivojlanishi uchun asosiy omillardan biridir. O‘ziga ishonchli yoshlar, o‘z imkoniyatlariga ishonib, maqsadlariga erishish uchun ko‘proq sa’y-harakat qilishadi. O‘zini hurmat qiladigan yoshlar esa o‘zlarini qadrlab, ularning salbiy fikrlar va tanqidlaridan emas, balki o‘z ichki kuchidan ilhom olishadi.
- Psixologik salomatlik va ruhiy barqarorlik:** O‘zini hurmat qilish va o‘ziga ishonch, yoshlarning psixologik salomatligini mustahkamlaydi. O‘zini hurmat qiladigan va o‘ziga ishonadigan yoshlar, stress va xavotirga qarshi kurashishda ko‘proq chidamlı bo‘lishadi. Ular o‘zlarining kamchiliklarini qabul qilib, ulardan o‘rganishga tayyor bo‘ladilar, bu esa ularning ruhiy barqarorligini ta’minlaydi.
- Ijtimoiy muvaffaqiyat va jamiyatga moslashish:** O‘ziga ishonchli yoshlar, jamiyatda o‘z o‘rmini topishda muvaffaqiyatli bo‘ladilar. Ular o‘zlarini boshqalar bilan taqqoslamasdan, o‘z shaxsiy qadr-qimmatini bilib, o‘zlarining haq-huquqlarini himoya qilishga tayyor bo‘lishadi. Bu, o‘z navbatida, yoshlarning boshqalar bilan sog‘lom va samarali munosabatlar o‘rnatishlariga yordam beradi.
- Kelajakdagi liderlik qobiliyatları:** O‘zini hurmat qilish va o‘ziga ishonch yoshlarni lider sifatida rivojlantirishga yordam beradi. Bu fazilatlar ularda o‘z qarorlarini qabul qilishda mustaqillikni va mas’uliyatni rivojlantiradi, shuningdek, ularga boshqalarni ilhomlantirish va yo‘naltirish qobiliyatini beradi. O‘ziga ishonchli yoshlar ko‘pincha boshqalarga namuna bo‘ladilar va ijtimoiy liderlar sifatida o‘zlarining joylarini topadilar.

7. Vatanparvarlik va milliy qadriyatlar:

Yoshlarda vatanparvarlikni tarbiyalash juda muhim. Ular o‘z Vatanini sevish, uning tarixini, madaniyatini, urf-odatlarini hurmat qilishlari lozim. Milliy qadriyatlarni o‘rganish va hurmat qilish, jamiyatda barqarorlik va tinchlikni saqlashga yordam beradi.

Yoshlarda vatanparvarlikni tarbiyalash zaruratining asosiy sabablari:

- 1. Milliy birdamlik va barqarorlik:** Vatanparvarlik, yoshlarni milliy birdamlikka va jamiyatning farovonligiga hissa qo'shishga undaydi. Yurtiga sadoqat va ona zaminga bo'lgan hurmatni tarbiyalash, ijtimoiy barqarorlikni saqlashga yordam beradi. Vatanparvar yoshlar milliy qadriyatlarni himoya qilishga, jamiyatda o'zlarining ijobiy rolini o'ynashga tayyor bo'lishadi.
- 2. Tarbiyaviy va ma'naviy mustahkamlash:** Yoshlarda vatanparvarlikni tarbiyalash, ularga ma'naviy qadriyatlarni o'zlashtirish va yurtining tarixi, madaniyati, urf-odatlari haqida chuqurroq tushunchaga ega bo'lishga yordam beradi. Bu, yoshlarni milliy an'analarga, o'z tarixiga hurmat bilan qarashga va o'z o'mini jamiyatda topishga undaydi.
- 3. Yurtni rivojlantirish va kelajakni ta'minlash:** Vatanparvar yoshlar o'z yurtining kelajagi uchun mas'uliyatni his qilishadi. Ular ilm-fan, texnologiya, iqtisodiyot va madaniyat sohalarida muvaffaqiyatli bo'lishga, davlatni rivojlantirishga hissa qo'shishga tayyor bo'lishadi. Vatanparvarlik, yoshlarni yurtining taraqqiyotiga hissa qo'shishga, kelajakda o'z millatining rivojlanishi uchun ishlashga rag'batlantiradi.
- 4. Ijtimoiy faollik va fuqarolik mas'uliyati:** Vatanparvarlik, yoshlarni ijtimoiy mas'uliyatni his qilishga, o'z millatining farovonligi uchun faollik ko'rsatishga undaydi. Bu, ularni jamiyatdagi muammolarga nisbatan mas'uliyatli bo'lishga, o'zaro yordam va hamjihatlikni rivojlantirishga undaydi. Yurtiga sodiq bo'lgan yoshlar jamiyatdagi ijtimoiy va siyosiy jarayonlarda faol ishtirot etadilar

8. Ijtimoiy mas'uliyat:

Yoshlarga faqat o'z manfaatlarini emas, balki jamiyatning manfaatlarini ham ko'zlashni o'rgatish zarur. Ijtimoiy mas'uliyat hissi — jamiyatda o'z rolini anglash, boshqa odamlar bilan hamkorlik qilish va ijtimoiy muammolarga yechim topishga yordam berish yoshlarning muhim fazilatlaridir.

Ijtimoiy mas'uliyatni tarbiyalashning zarurati:

- Jamiyatda ijtimoiyadolatni ta'minlash:** Ijtimoiy mas'uliyat yoshlarni faqat o'z manfaatlari bilan yashashga emas, balki jamiyatdagi barcha a'zolarni teng ko'rish va har bir insongaadolatli munosabatda bo'lishga undaydi. Bu, o'z navbatida, jamiyatdagi ijtimoiyadolatni ta'minlashga yordam beradi.
- Yoshlarni ijtimoiy muammolarga befarq bo'lmaslikka o'rgatish:** Ijtimoiy mas'uliyatni tarbiyalash yoshlarni jamiyatdagi muammolarga befarq qaramaslikka va ularga yordam berishga undaydi. Yoshlarda ijtimoiy muammolarga nisbatan empatiya va qayg'uru holatini rivojlantirish, jamiyatni yaxshilashga intilish hissini uyg'otadi.
- Yurtga xizmat qilish va jamiyatni rivojlantirish:** Ijtimoiy mas'uliyat, yoshlarni faqat o'z manfaatlarini emas, balki yurtining rivojlanishiga hissa qo'shishga, jamiyatni yaxshilashga undaydi. Bu, davlatni rivojlantirishga va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi.
- Ijtimoiy hamjihatlik va birlashish:** Ijtimoiy mas'uliyat yoshlarni hamjihatlikka undaydi. Jamiyatda odamlar o'rtasidagi ijobiy munosabatlarni rivojlantirish, bir-biriga yordam berishga, birgalikda ishlashga rag'batlantiradi.

9. Axloqiylik va e'tibor:

Yoshlarga axloqiylikni, boshqalarga e'tibor berishni va jamiyatda ijobiy munosabatlar o'rnatishni o'rgatish kerak. O'zaro hurmat va e'tibor jamiyatda yaxshi munosabatlar, o'zaro yordam va tinchlikni ta'minlaydi.

Ahloqiylik va e'tibor fazilatini tarbiyalashning zarurati

- Shaxsiy va ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirish:** Ahloqiylik va e'tibor insonning nafaqat o'zini hurmat qilishini, balki boshqalar huquqlariga, hissiyotlariga, ehtiyojlariga nisbatan mas'uliyatini ham anglashga yordam beradi. Bu, yoshlarni nafaqat o'z manfaatlari bilan yashashga, balki jamiyatda

hurmatli, mas’uliyatli va ijtimoiy faollikni ko‘rsatadigan odamlar bo‘lishga undaydi.

2. **Insoniy qadriyatlarni mustahkamlash:** Ahloqiylik va e’tibor fazilatlari insoniyatning asosiy qadriyatlarini anglash, hurmat qilish va ijobiy munosabatlarni o‘rnatishda muhim rol o‘ynaydi. Bu fazilatlarni tarbiyalash yoshlarni boshqalarga nisbatan mehribon, samimiy va adolatli bo‘lishga o‘rgatadi.
3. **Jamiyatda sog‘lom munosabatlarni yaratish:** Ahloqiylik va e’tibor jamiyatda o‘zaro hurmat, e’tibor va hamjihatlikni rivojlantiradi. Yoshlarda bu fazilatlarni shakllantirish, ular o‘rtasida yaxshi munosabatlarni va sog‘lom ijtimoiy tizimni yaratishga yordam beradi.
4. **Muvaffaqiyatli va baxtli hayot:** Ahloqiylik va e’tibor, yoshlarni o‘zlarining ichki dunyosini yaxshi bilishga, boshqalarga e’tiborli bo‘lishga va ular bilan mustahkam, do‘stona munosabatlar o‘rnatishga yordam beradi. Bu esa, o‘z navbatida, shaxsiy rivojlanish va baxtli hayot kechirishga yo‘l ochadi.

10. Kreativlik va yangi g‘oyalarga ochiqlik:

Yoshlarga yangi g‘oyalarni ishlab chiqish, ijodiy yondashuvni qo‘llash va doimo o‘zlarini yangilab borish zarur. Kreativ fikrlash yoshlarni innovatsion o‘ylashga va yangi imkoniyatlar yaratishga undaydi. Bu fazilatlar yoshlarning kelajakdagagi muvaffaqiyatlari uchun juda muhimdir.

Kreativlikni tarbiyalashning zarurati

1. **Innovatsion fikrlashni rivojlanirish:** Kreativ fikrlash jamiyatning rivojlanishida asosiy omil bo‘lishi mumkin. Yoshlarni kreativlikka rag‘batlantirish, ularning yangilik yaratishga va yangi g‘oyalalar ishlab chiqishga tayyor bo‘lishlarini ta’minlaydi. Bu, o‘z navbatida, ilm-fan, texnologiya va iqtisodiyot sohalarida yangi kashfiyotlar va inqilobiy yondashuvlarni yuzaga keltiradi.

- Muammolarga innovatsion yechimlar topish:** Kreativlik yoshlarni o‘z hayotlarida va jamiyatdagi muammolarni yaratadigan yangi yondashuvlar orqali hal qilishga o‘rgatadi. Muammolarga an'anaviy yondashuvlardan tashqari, yangi va o‘ziga xos yechimlar topish yoshlarning kelajagi uchun muhimdir.
- Shaxsiy rivojlanish va o‘zini ifoda etish:** Kreativlikni rivojlantirish, yoshlarni o‘z fikrlarini erkin ifoda etish va o‘zlarini yaratishda, san'at va boshqa ijodiy sohalarda o‘z salohiyatlarini ochish imkonini beradi. Bu, shuningdek, o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshiradi va shaxsiy rivojlanishga yordam beradi.
- Jamiyatda ijtimoiy va madaniy yangiliklarni yaratish:** Kreativlik yoshlarni ijtimoiy va madaniy yangiliklarni yaratishga, jamiyatni yaxshilashga va yangi ijtimoiy qadriyatlar shakllantirishga yordam beradi. Ijodkor yoshlar jamiyatda o‘zgarishlarni amalga oshirishda faol ishtirok etadilar.

11. Bag‘rikenglik va tolerantlik:

Yoshlarga turli madaniyat, din va qadr-qimmatlarni hurmat qilishni o‘rgatish kerak. Bag‘rikenglik va tolerantlik jamiyatda o‘zaro tushunish, tinchlik va hamjihatlikni ta’minlaydi. Yoshlarga turli fikrlarni hurmat qilish va o‘zaro fikr almashishni rivojlantirish muhim.

Bag‘rikenglik va tolerantlikni tarbiyalashning zarurati

- Jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta’minalash:** Bag‘rikenglik va tolerantlik, jamiyatda turli fikrlar, e’tiqodlar va madaniyatlar o‘rtasida tinchlikni saqlashga yordam beradi. Yoshlar o‘rtasida bu fazilatlarni tarbiyalash, ijtimoiy ziddiyatlarni kamaytirishga va jamiyatdagi muammolarni tinch yo‘l bilan hal qilishga imkon yaratadi.
- Madaniy xilma-xillikka hurmatni oshirish:** Bag‘rikenglik va tolerantlik, yoshlarni turli xil madaniyatlar, urf-odatlar va hayot tarzlariga hurmat bilan

qarashga o‘rgatadi. Bu, global dunyoda odamlar o‘rtasida yaxshiroq muloqot va o‘zaro tushunishni rivojlantiradi.

3. **Inson huquqlarini hurmat qilish:** Bag‘rikenglik va tolerantlik fazilatlari, yoshlarni boshqalarning huquq va erkinliklarini hurmat qilishga, ularning e’tiqodlari va qarashlarini qabul qilishga o‘rgatadi. Bu, inson huquqlariga rioya etishni va ularni himoya qilishni kuchaytiradi.
4. **Ijtimoiy barqarorlik va hamjihatlik:** Yoshlarni bag‘rikenglikka va tolerantlikka o‘rgatish, jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni saqlashga yordam beradi. Yangi fikrlar, qarashlar va madaniyatlarni o‘zaro hurmat bilan qabul qilish, jamiyatni birlashtiradi va mustahkamlaydi.

12. O‘zgarishga moslashuvchanlik va fleksibilitet:

Hozirgi zamon juda tez o‘zgarib borayotgan dunyo bo‘lib, yoshlar o‘zgarishlarga moslashish, yangi sharoitlarga tezda moslashish va har qanday holatda samarali ishlashni o‘rganishlari kerak. Ular innovatsiyalarga ochiq bo‘lishi, yangi imkoniyatlarga qarshi qayg‘u yoki qo‘rquvsiz yondashishlari lozim.

O‘zgarishga moslashuvchanlik va fleksibilitetni tarbiyalashning zarurati

1. **Tez o‘zgarayotgan dunyoga tayyorlanish:** Zamonaviy jamiyatda texnologiya, iqtisodiyot va ijtimoiy muhitda tezkor o‘zgarishlar sodir bo‘lib turadi. Yoshlarni o‘zgarishga moslashuvchan bo‘lishga o‘rgatish, ularni bu o‘zgarishlarga tayyorlaydi va kelajakda muvaffaqiyatli bo‘lishlariga yordam beradi. Moslashuvchanlik, yangi imkoniyatlarni aniqlash va ulardan foydalana olish uchun zarurdir.
2. **Muammolarga innovatsion yondashuv:** O‘zgarishga moslashuvchanlik va fleksibilitet yoshlarni muammolarni yangicha yondashuvalar bilan hal qilishga o‘rgatadi. Bu ularga yangi yechimlar topishda yordam beradi va ijtimoiy va professional hayotda muvaffaqiyatni ta’minlaydi.

3. **Shaxsiy rivojlanish va o‘zini anglash:** O‘zgarishga moslashuvchan bo‘lish, shaxsning o‘zini rivojlantirishga yordam beradi. Yangi vaziyatlarga va sinovlarga ochiq bo‘lish, shaxsiy cheklovlarni yengib o‘tishga va o‘z imkoniyatlarini kengaytirishga imkon beradi.
4. **Emotsional barqarorlikni ta’minlash:** O‘zgarishlar va yangi sharoitlar ba’zan stress va noqulaylikni keltirib chiqarishi mumkin. Moslashuvchanlik, stressni boshqarish va yangi holatlarga emotsional barqarorlik bilan yondashishga yordam beradi

13. O‘zaro hurmat va xushmuomalalik:

Yoshlarga boshqalar bilan yaxshi munosabatda bo‘lish, hurmat bilan muomala qilish, xushmuomalalikni o‘rgatish juda zarur. O‘zaro hurmat va xushmuomalalik jamiyatda ijobiy muhit yaratadi va shaxsiy aloqalarni kuchaytiradi.

O‘zaro hurmat va xushmuomalalikni tarbiyalashning zarurati

1. **Sog‘lom ijtimoiy munosabatlar o‘rnatish:** O‘zaro hurmat va xushmuomalalik shaxslar o‘rtasidagi sog‘lom munosabatlarni o‘rnatish uchun zarurdir. Yoshlarni boshqalarga hurmat bilan yondashishga o‘rgatish, ular o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni yaxshilaydi va jamiyatda yanada sog‘lom, tinch muhitni yaratadi.
2. **Inson huquqlarini hurmat qilish:** O‘zaro hurmat va xushmuomalalik fazilatlari yoshlarni boshqalarning huquq va erkinliklariga hurmat bilan qarashga o‘rgatadi. Bu, ijtimoiy adolatni ta’minlash va barcha odamlarning teng huquqlilagini rivojlantirishga yordam beradi.
3. **Madaniyat va qadriyatlarga hurmat:** Hurmat va xushmuomalalik, turli millatlar, e’tiqodlar va madaniyatlar o‘rtasida o‘zaro tushunish va hurmatni oshiradi. Yoshlar turli xil e’tiqodlar, fikrlar va urf-odatlarga hurmat bilan yondashishga o‘rgatish kerak.

4. Xavfsiz va ijobjiy muhit yaratish: Hurmat va xushmuomalalik tarbiyalash yoshlarni o‘zaro ijobjiy va xavfsiz muhit yaratishga yordam beradi. Bu, jamiyatdagi ko‘plab ijtimoiy muammolarni bartaraf etishga, bullying va ziddiyatlarning oldini olishga imkon beradi.

Bugungi yoshlар nafaqat ilm-fan va texnologiya sohalarida, balki axloqiy va ma’naviy jihatdan ham rivojlanishi kerak. Yoshlarga bu fazilatlarni tarbiyalash, ular jamiyatda muvaffaqiyatli, madaniyatli, mas’uliyatli va ijobjiy o‘zgarishlarga sabab bo‘ladigan avlod bo‘lib yetishishlariga yordam beradi.

2.3 Talabalarni kasbiy pedagogik ta’lim jarayonida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishga tayyorlash texnologiyasi

Oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, yoshlarning intellektual salohiyati, tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, xalq manfaatlari uchun xizmat qilish tuyg‘usi bilan yashaydigan barkamol avlod sifatida tarbiyalashga qaratilgan talaba-yoshlarning ma’naviy-axloqiy ongini rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish borasida Respublikamiz prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miromonovich hozirgi O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida: O‘zbekiston respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi farmonini tasdiqladi va ushbu farmon ayni vaqtda qabul qilingan farmonlardan ekanligiga yana bir bora amin bo‘ldik. Bugungi kunda dunyo ta’lim tizimida talabalarning Ma’naviy-ma’rifiy ishlар tizimini tubdan takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari borasida dunyoning yetakchi, rivojlangan mamlakatlari Rossiya,

Germaniya, Fransiya, Япония, Xitoy, Koreya kabi davlatlarida talabalaming tafakkurini o'stirish, qobiliyatlarini erta namoyon etish, ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, mafkuraviy immunitetini rivojlantirish mexanizmlari samaradorligini oshirish metodikasini takomillashtirishda muammoli o'qitish, modulli o'qitish, blended learning (aralash o'qitish), mahorat darslari, vebinarlar, evristik metodlar, virtual ta'lim texnologiyalarini qo'llash muhim o'rinn tutdi. Rivojlangan mamlakatlarning ta'lim tizimida talabaling Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini o'rganish, uni o'z mintalitetimizga mos ravishda rivojlantirish bizning oliv maqsadimiz sifatida qarashimiz zarur. Yangi O'zbekiston sharoitida mafkuramizning tub ma'no-mazmunini belgilab beradigan ana shu maqsad bizning hayotimiz, ong-u tafakkurimizga singib, dunyoqarashimiz, amaliy harakatlarimizning asosiga aylandi va zamonga mos tarzda o'zgarib bormoqda. Shu yo'lda yoshlarda mafkuraning mazmun mohiyatini to'liq shakllantirib, tarixiy ildizlarini asoslab, dunyoqarashni rivojlantirish ta'lim-tarbiyada eng muhim vazifaga aylanmog'i kerak. Ta'lim jaroyonining ajralmas bir qismi bu ma'naviy-ma'rify ishlar, tadbirlar, qadriyatlar sanaladi. Bu boradagi ishlarni yanada takomillashtirish borasida prezidentimiz 2021 yil 26 mart kuni «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida»gi qarorni imzoladi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari etib quyidagi vazifalar belgilandi:

- «Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari» g'oyasini keng targ'ib etish orqali jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish; oila, ta'lim tashkilotlari va mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzviyigini ta'minlash;
- targ'ibot-tashviqot va tarbiya yo'nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, soha bo'yicha ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy ma'naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini joriy qilish;
- el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, korrupsiya, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik va yoshlar tarbiyasiga mas'uliyatsizlik kabi illatlarga barham berishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- aholining Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanish madaniyatini oshirish, g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini

kuchaytirish; • madaniyat, adabiyot, kino, teatr, musiqa va san'atning barcha turlari, noshirlik matbaa mahsulotlari, ommaviy axborot vositalarida ma'naviy-axloqiy mezonlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga erishish; • geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarni muntazam o'rganish, terrorizm, ekstremizm, aqidaparastlik, odam savdosi, narkobiznes va boshqa xatarli tahdidlarga qarshi samarali g'oyaviy kurash olib borish hamda bu borada xalqaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish. Mazkur vazifalarni amaliyatga joriy etishda pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va shu asosida oily ta'lismuassasalarida mash'gulotlarni tashkil etish lozim. Shunga muvofiq xalq xo'jaligini bu sohalari uchun kadrlar tayyorlab beradigan mutasaddi tashkilotlar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lism o'quv-tarbiya jarayonini yangicha tashkil qilish muammosini hal qilishga bog'liqdir. Buning yagona yo'li zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lum-tarbiya jarayoniga keng qo'llash orqali echiladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish ham dolzarb muammo hisoblanadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ta'lum-tarbiya jarayonini ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilish, ma'naviy-ma'rifiy ishlar, dars, darsdan tashqari mashg'ulotlarni yangicha ijodiy asosda tashkil qilish zarur. Eng muhimi har bir pedagog, rahbar ta'lumi yangi metodologik asosda tashkil qilishning tub mohiyatini tushunmog'i lozim. Yangicha ta'lum eski andozalar asosida olib borilishi mumkin emas. Bundan tashqari ta'lumi yangicha tashkil qilishning ilmiy-metodik asoslarini, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashning zaruriy shart-sharoitlarini bilish ham muhim. Shundan kelib chiqib, mamlakatimizda "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror asosida islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Bu jarayonlar xalqaro miqyosda e'tirof etilib, o'zining natijasini bermoqda. Oqibatida O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi ancha tezlashdi. Lekin uning kelgusi taraqqiyoti omillarini inobatga olish jahon ta'lum amaliyotida qo'llanilayotgan yangi va ilg'or fan yutuqlaridan keng foydalanishni taqozo etadi. Chunki zamonaviy texnologiyalar ta'lum oluvchilarining intellektual, ijodiy va axloqiy kamolotining zaruriy sharti hisoblanadi. Faqat shu asosda rivojlanish uzluksiz ta'lum tizimining hamma bo'g'inlarida pedagogik jarayonning

chuqur mohiyatini tashkil qiluvchi asosi y tushunchaga aylandiki, uning harakatlantiruvchi kuchi zamonaviy pedagogik texnologiyalardir.. Ta’lim islohotimizda jahon ta’limi rivojlanishining ijobi y xususiyatlarini ta’limni amaliy - inson hayoti, shaxsga yo‘nalganlik tajribasini va uni rivojlanishning muhim vositasi zamonaviy pedagogik texnologiyalar ekanligi asosida uni rivojlanishi asosiy yo‘nalishlarini belgilash muhim hisoblanadi. Islohot oqibatida ta’lim tizimimiz rivojini jahonga yo‘naltirish - yana juda bir muhim vazifa - ta’lim rivojini bozor munosabatlariga moslashtirishning tajribasidan unumli foydalanishdir. Talabalarni kasbiy pedagogik talim jarayonida manaviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishda tayyorlash texnologiyasi nomli maqolani tayyorlash borasida olib borilgan tadqiqot va natijalar. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar jarayonida talabalarda mafkuraviy immunitetni rivojlanishda quyidagi texnologiyalarni joriy etish muhimdir. Jumladan: 1. Katta axborot zaxirasi bilan shug‘ullanishga, bilimlarning aniq tizimini shakllantirish va bilimlarga tayanishga yo‘naltirilgan axborot-rivojlaniruvchi texnologiya. 2. Mustaqil fikrlash, faollikni oshirishga yo‘naltirilgan muammoli ta’lim texnologiyasi. 3. Kasbiy yoki o‘quv faoliyati vositalarini egallashga yo‘naltirilgan faoliyat texnologiyasi. 4. Shaxsning kamoloti yoki ta’lim-tarbiya jarayonida shaxsning faolligini shakllantirishga qaratilgan texnologiya. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amalga oshirish, ya’ni ta’lim-tarbiya jarayoniga keng qo‘llashda axborot texnologiya, xususan kompyutertexnologiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan yangi axborot texnologiyalar o‘qitish metodlari hamda pedagogik texnologiyalarning ta’lim-tarbiyaviy yoki ularning pedagogik, didaktik hamda potensial imkoniyatlarini to‘liq ochish va ulardan o‘quvchi shaxsini rivojlanish uchun foydalanishda qulaylik yaratadi. Axborot texnologiyalari pedagogik texnologiyalarning ta’sir kuchini oshirib, ularni qo‘llashdan kutilgan natijaga erishish uchun sharoit vujudga keltiradi. Pedagogik va axborot texnologiyalarni o‘quv-tarbiya jarayoniga qo‘llash asta sekin avtoritar o‘qitish metodlaridan insonparvarlik pedagogikasiga yoki shaxs manfaati va kamolotiga yo‘naltirilgan o‘qitish tizimiga o‘tish imkoniyatini beradi. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar jarayonida mafkuraviy immunitetni rivojlanish mazmunini shunday tanlash lozimki, unda faqatgina mafkuraviy immunitetgina emas, balki shaxsni

qobiliyati, intellektual rivoji, uni shakllanishi va o‘zini namoyon qila olishiga zamin hozirlashi lozim.

Nazorat uchun savollar.

- 1.** Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishda qanday muammolar mavjud?
- 2.** Yoshlarni ma’naviy ahloqiy tarbiyasida yangi texnologiyalar va internetning ta’siri qanday?
- 3.** Bugungi yoshlarda qanday fazilatlarni tarbiyalash lozim?
- 4.** Yoshlarda sabr-toqat fazilatini tarbiyalash zaruriyatining asosiy sabablari?
- 5.** Yoshlarda vatanparvarlikni tarbiyalash zaruratining asosiy sabablari?
- 6.** Ijtimoiy mas’uliyatni tarbiyalashning zaruratining asosiy sabablari?
- 7.** O‘zgarishga moslashuvchanlik va fleksibilitetni tarbiyalashning zarurati nimada?
- 8.** Prezidentimiz qachon «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorni imzoladi?
- 9.** Qaysi vazifalar ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari etib belgilandi?
- 10.** Ma’naviy-ma’rifiy ishlar jarayonida mafkuraviy immunitetni rivojlantirish deganda nimani tushunasiz?



III. SEMINAR-TRENING MASHG'ULOTLAR MATERIALLARI

III. SEMINAR-TRENING MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-MASHG'ULOT: OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNI TASHKIL ETISHDAGI DOLZARB VAZIFALAR.

(2 soat)

Reja:

1.Ma'naviyat-jamiyat rivojlanishining muhim omili. Ma'naviy rivojlanish jarayonining asosiy tendensiyalari.

2. OTM muassasalarida yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishning samarali usullari. OTM ma'naviy muhitini o'rghanishning PEST-tahlili.

Tayanch tushunchalar:ma'naviy rivojlanish sub'yektlari, PEST-tahlili, OTM rivojlanishining strategik rejasi, ta'lif tarbiya, tyutor, pedagogik mahorat, rivojlanish, psixologik muhit.

1.Ma'naviy rivojlanish jarayonining asosiy tendensiyalari va tavsifi.

Respublikamizning bugungi ma'naviy-ma'rifiy hayotida asrlarga teng sezilarli o'zgarishlarni ko'rsak bo'ladi. Asriy qadriyatlarimiz va milliy an'analarimiz tiklanmoqda va mustahkamlanmoqda. Xalqimiz ma'naviyatini yanada yuksaltirishda o'ziga xos yo'lidan borayotgan mamlakatimiz taraqqiyotining ustivor yo'nalishlaridan biri ekanligini yaqqol ko'rsa bo'ladi. Har bir jamiyatda ma'naviyatning mohiyatini chuqur anglash muvafaqqiyat garovidir. Chunki ma'naviyat-insonning insoniylik mohiyati, shaxsdagi ijobiy fazilatlari qiyofasi majmuidir. U inson hayotining tub mohiyatini belgilaydigan aqliy, ruhiy, axloqiy va jismoniy qarashlar, ko'nikmalar, odatlar tizimidir. Ma'naviyat – har bir insonning milliy va umuminsoniy komilllik darjasи, unga etaklovchi, undovchi imkoniyat. U inson shaxsini insoniylik bilan boyituvchi, kamol toptiruvchi, ko'rkamlashtiruvchi beqiyos hayotiy omil. Ma'naviyat – yaxshilik va ezgulikka moyil, yomonlik va yovuzlikdan tiyilish, nafosat va haqiqatga, halollik va rostgo'ylikka intilish, o'zi mansub jamiyatning axloqiy, huquqiy, ma'rifiy-madaniy mezonlariga amal qilish hissidir.

Ma'rifat – mohiyatan aql-idrok, tafakkurning mayog'i, mijozning murabbiysi, qalbda munavvarlikni, insoniy ulug'vorlikni qaror toptiruvchi umriy vosita, iymon-e'tiqod,

harakter, lafzning me'mori, vujudning jon tomiri. U – bilish, tanish, ilm va madaniyatning kamol topish mazmuni, usul va vositalaridir. Ma'naviyat va ma'rifat va inson tushunchalari bir butun holdagina muayyan mazmunga ega bo'ladi. Ma'naviyat yo'q joyda ma'lum maqsadga qaratilgan insoniy faoliyat ham bo'lmaydi, insonlar jamoasining birligi – jamiyat ham bo'lmaydi. Ma'naviyatning ahamiyatini ana shu nuqtai nazardan baholamoq kerak. Ma'naviyat va ma'rifat davlat ichki hayotidagi bir butunlikni, odamlar ruhiyatidagi ko'tarinkilik va kelajakka ishonchni, aql-zakovat yuksakligini, o'z faoliyatida tinchlikni, millatlararo hamjihatlikni barqaror rivojlantirish yo'lini aniq belgilashdagi o'z fuqarolarning orzu-umidlarini, manfaatlarini ifoda eta bilish, uni buyuk kelajak sari harakatga yo'naltirish va unga rahbarlik qilish salohiyati hisoblanadi. Ma'naviyat va ma'rifatning yangi jamiyatni qurishdagi qudratli kuch va beba ho manba ekanligi quyidagi masalalarda o'z ifodasini topadi va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda ularga alohida e'tibor qaratiladi. Ma'naviyat va ma'rifat jamiyat oldida turgan muammolar mohiyatini o'zida ifoda ettiradi hamda uni hal qilish uchun fuqarolar va davlat manfaatlarini birlashtiradi. Ma'naviyati va ma'rifati zamonaviy rivojlangan mamlakatlarda xalqning vatanparvarlik va millatparvarlik tuyg'ulari kuchli bo'ladi. Bunday holat o'z navbatida davlat va xalqning birligini mustahkamlashda turli xil millatlar va ijtimoiy qatlamlarning bir-birlari bilan umummanfaatlar yo'lida jipslashishlarida qudratli omil sifatida xizmat qiladi. Ma'naviyat va ma'rifat bor joyda ehtiyojlar va zaruriyatlar ham yuzaga keladi. O'z navbatida ehtiyojlar va zaruriyatlar shaxs, millat va davlatni kechagidan bugun, bugundan ertaga yana ham yaxshiroq hayot kechirishga, barkamol bo'lishiga etaklaydi, shaxs, millat va davlatning taraqqiyoti sari harakat qilishga da'vat etadi. Bu jarayonda ma'naviyat va ma'rifat shaxs, millat va davlat taraqqiyotini harakatga keltiruvchi bosh omil hisoblanadi.

Ma'naviyat va ma'rifat aql-zakovat, salohiyat yuksakligining muhim mezoni va manbai hisoblanadi. Bu orqali inson millat mahsulini millat va mamlakatning yuksak moddiy va ma'naviy boyliklari darajasiga ko'taradi. Ma'naviyat va ma'rifat davlat ichki hayotida tinchlik, barqarorlikni vujudga keltiradi, har qanday munozarali masalalarni aql va vazminlik bilan hal qilishda xalq ruhiyatini shakllantiradi.

Ma’naviyat va ma’rifat kishilarni sub’yektiv, qarindosh-urug‘chilik, mahalliychilik manfaatlari ehtiroslarga berilishidan saqlaydi, shaxsiy va mahalliy manfaatlarni millat hamda Vatan manfaatlariga uyg‘unlashtirish muhitini vujudga keltiradi, millatning umubashariy qadriyatlar sari intilishini kuchaytiradi. Ma’naviyat va ma’rifat mamlakatdaadolatni qaror toptirish, insonlarni qonunlarning ijodkori va itoatkori darajasiga ko’taradi. Qonunlar davlat, millat va shaxsning har qanday harakatining aniq me’yori darajasiga aylangan mamlakatda demokratik ruhdagiadolatli qadriyatlar shakllanishi mumkin bo‘ladi. Ma’naviyatning tarkibiy tizimi. Ma’naviyat – shaxsning ruhiy hayot tajribasi, ruhiy olamini, dunyoqarashini, aqliy salohiyatini o‘zida mujassamlashtiradi. U shaxsning va millatning o‘zligini anglashi, milliy g‘urur, milliy iftihor, vatanparvarlik, davlatga hurmat, jamoa an'analariga xayrixohlik, diyonat, mehr-shafqat, poklik, halollik, vijdonlilik, rostgo‘ylik,adolatparvarlik, kamtarinlik kabilarni o‘z ichiga oladi. Ma’naviyat yo‘li – bosqichma-bosqich o‘tiladigan yo‘l. Inson aqlini tanigandan boshlab, tafakkur, axloq va ma’rifatda kamolotga intiladi. Jamiyat ma’naviyati, uning rivoji ham uzoq davom etgan tarixiy taraqqiyotning natijasi hisoblanadi. Jamiyat asta-sekin rivojlanib borgan sari inson ma’naviyati ham tarkibiy jihatdan mukammallahib borgan. Ma’naviyatning eng qadimgi asoslarini axloqiy, diniy va badiiy qarashlar tashkil qiladi. Davlatning yuzaga kelishi bilan ma’naviyatning siyosiy, falsafiy va ilmiy shakllari yuzaga kelgan. Shunday qilib, ma’naviyatning tarkibiy tizimini quyidagilar tashkil qiladi: tarbiyaga oid qarashlar va axloqiy ta’lim; diniy qarashlar va diniy ta’lim; badiiy qarashlar va badiiy ta’lim; falsafiy qarashlar va falsafiy ta’lim; siyosiy qarashlar va siyosiy ta’lim; huquqiy qarashlar va huquqiy ta’lim; ilmiy qarashlar va fan jami tabiiy va gumanitar fanlar ham shu guruhgakiradi. Bularning har qaysisi tadqiq predmetiga ega. Ular ma’lum ijtimoiy vazifani bajarishga da’vat etilgan bo‘lib, jamiyat taraqqiyoti va ma’naviyatli komil insonni tarbiyalashda muhim mavqe tutadi.

Ma’naviy rivojlanish jarayonining asosiy tendensiyalari jamiyatda ma’naviy qadriyatlarning o‘zgarishi va rivojlanishiga olib keladi. Hozirgi zamonda ma’naviy rivojlanish bir qancha asosiy tendensiyalarni o‘z ichiga oladi:

1. Globalizatsiya va madaniyatlar o‘zaro ta’siri: Globalizatsiya jarayonlari dunyo miqyosida madaniy va ma’naviy qadriyatlar o‘zgarishiga olib kelmoqda. Yangi texnologiyalar, internet va kommunikatsiya vositalari orqali turli madaniyatlar va e’tiqodlar o‘zaro aloqada bo‘lib, ularning bir-biriga ta’sirini kuchaytirmoqda. Bu tendensiya insonlarning dunyoqarashi va ma’naviy qadriyatlarini qayta shakllantiradi.
2. Individuallik va o‘zligini anglash: Zamonaviy jamiyatda individning o‘ziga xosligi va o‘zligini anglash jarayoni katta ahamiyatga ega. Insonlar o‘z kimligini izlab, ma’naviy qadriyatlarni qayta baholamoqda. O‘zgaruvchan dunyoda, o‘z-o‘zini anglash va ichki muvozanatni saqlashni o‘rganish muhim ma’naviy vazifaga aylanadi.
3. Ruhiy o‘sish va psixologik salomatlik: Ruhiy o‘sish va psixologik salomatlikning ahamiyati ortib bormoqda. Shaxsiy rivojlanish, meditatsiya, mindfulness kabi amallar keng tarqalmoqda. Jamiyatda ruhiy salomatlikni qadrlash va unga e’tibor berish, ichki dunyoni anglash maqsadida ko‘plab psixologik usullar va terapiyalar ishlatilmoqda.
4. Diniy va ma’naviy qadriyatlarning yangilanishi: Din va ma’naviyatning ahamiyati, xususan, diniy e’tiqodlar va amallar yangi shakllarga ega bo‘lib, ko‘p hollarda an’anaviy dinlarning ilgarigi qadriyatlari va talqinlariga qarshi yangi interpretatsiyalar paydo bo‘lmoqda. Bu, asosan, diniy e’tiqodlarni individual va shaxsiy jihatdan anglashga asoslangan yangi yondashuvlarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq.
5. Insonparvarlik va etik masalalar: Insonparvarlik, etik qadriyatlар, hamjihatlik va ijtimoiy mas’uliyat tendensiyalari kuchaymoqda. Jamiyatlar o‘rtasidagi tenglik,adolat,inson huquqlari kabi muhim masalalar dolzarb bo‘lib, ko‘plab insonlar bu qadriyatlarni hayotda tatbiq etishga harakat qilmoqdalar.
6. Texnologiya va ma’naviyatning o‘zaro ta’siri: Texnologik taraqqiyot ma’naviy rivojlanishga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Sun’iy intellekt, virtual reallik va boshqa texnologiyalar insonlarning dunyoqarashi va ma’naviy qadriyatlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynamoqda. Ayniqsa, texnologiyalar odamlar

orasida yangi ma’naviy aloqalar o‘rnatish, turli madaniyatlar va qarashlarni birlashtirishda katta imkoniyatlar yaratmoqda.

Bu tendensiyalar jamiyatda ma’naviy qadriyatlar va insoniyatning kelajagi haqida yangi fikrlar va yondashuvlarni shakllantirmoqda. Shaxsiy va ijtimoiy rivojlanish jarayonlarida ma’naviyatning roli ortib bormoqda.

2. OTM muassasalarida yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishning samarali usullar.OTM ma’naviy muhitini o‘rganishning PEST-tahlili

Oliy ta’limda muassasalarida yoshlarni ma’naviyatli,yuksak iqtidor egasi bo‘lishi tarbiya jihatidan ham ta’lim jihatidan ham oldingi o‘rinlarda turishi talabalarning nafaqat balki o‘qituvchi, tyutorlar har birini o‘rni alohida muhimdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son qarorining “Konsepsiyanı amalga oshirishning ustuvor yo‘nalishlari” sifatida“ yoshlarda vatanga sadoqat,tadbirkorlik,irodalilik, mafkuraviy immunitet,mexroqibatlilik, ma’suliyatlik,bag‘rikenglik, kabi muhim fazilatlarni yoshlikdan tarbiyalash,ayniqsa ma’naviy tarbiyani shakllantirishda oila va ta’lim muassasalari o‘rtasida samarali xamkorlik mexanizmini yo‘lga qo‘yish vazifa qilib belgilanligi ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta’minalash, oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yanada faollashtirish va mazkur yo‘nalishdagi kadrlar salohiyatini oshirish maqsadida Mazkur o‘quv-seminarlari oliy ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha mas’ullar faoliyatini yanada jadallashtirish, ularning bugungi kunda dunyoda kechayotgan geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlar hamda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlardan xabardorlik darajasini oshirishga xizmat qiladi. Yangilanyotgan O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ishlar ko‘lami kundan kunga kengayib bormoqda. Davlatimiz rahbarining sayi-harakatlari, tashabbuslari bilan shiddat bilan taraqqiyot sari intilish O‘zbekiston hayotida misli ko‘rilmagan darajadagi rivojlanishning yuksak pog‘onalarini ko‘rib guvohi bo‘lib turibmiz. Insonlarning tinch-hotirjam yashashi, ularning manfaatlarini himoya qilish,"yurtimizni jahon arenasiga chiqarish, obro‘yini

ko‘tarish, Prezidentimizning ta’birlari bilan aytganda, “xalqni rozi qilish” yo‘lida qilinayotgan barcha ishlar, islohotlar jamiyatimiz taraqqiyotida muhim strategik masala sifatida qaralmoqda. O‘zbekistonni yanada rivojlantirishning Harakatlar Strategiyasida belgilangan beshta, uning uzviyligini ta’minalash maqsadida amalga oshiriladigan yetta ustivor yo‘nalishlarda belgilangan vazifalar va bunda ko‘zda tutilgan maqsadlarning barchasining markazida “INSON”ning turishi, bir so‘z bilan aytganda, chiqarilayotgan barcha xujatlarning mazmunida shu yurtda yashayotgan xalqimizning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish, ularning farovon turmush tarzini yaxshilash, insonlar mehnatini qadrlash, yurtimizning jahon hamjamiyati oldida nufuzi, obro‘yini oshirish va boshqa ulug‘ maqsadlar qo‘yilganligidan dalolat berib turibdi. Bunday ulug‘ ishlarni amalga oshirishda ma’naviy-ma’rifiy faoliyatning ahamiyati beqiyosdir. “Ma’naviy-ma’rifiy faoliyat - bu insonlarning ma’naviy, ma’rifiy, ahloqiy qarashlariga oid tushunchalarni qamrab oladigan jarayonlardan hisoblanib, aniq reja asosida o‘tkaziladigan tadbirlar asnosida amalga oshiriladigan ishlar majmuasidir” Ma’naviy-ma’rifiy ishlar haqida olimlarimiz juda turli xil fikrlarni ayтиб o‘tganlar. Madaniy oqartuv ishlari, madaniy-ma’rifiy ishlar, ma’naviy-ma’rifiy ishlar, madaniy tadbirlar kabi nomlar bilan atalib kelingan. Ushbu sanab o‘tilganlarning barchasi deyarli bir xil mazmunga ega, ammo hozirgi kunga kelib asosan “ma’naviy ma’rifiy ishlar” deb yuritish an’anaga aylangan. Yurtimizda ma’naviy-ma’rifiy ishlarga juda katta strategik masala sifatida qaralib kelinmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning deyarli barchasi shu yurtda istiqomat qilayotgan insonlarning orzu-istiklarining ro‘yobi uchun qilinayotgan ishlardir, deb qarasak, bizningcha to‘g‘ri bo‘ladi. Barkamol avlod, komil inson, yosh avlod tarbiyasi kabi vazifalar aynan ma’naviy-ma’rifiy faoliyatni tashkil etish orqali amalga oshiriladigan jarayonlardir. Bu jarayonlarning barchasining markazida insonlarning farovon hayot kechirishlari, xalqimizni ehtiyojlarini qondirish, ularning yaxshi yashashi, sharoitlarini yaxshilash kabi vazifalar yotadi. Ayniqsa, yoshlar tarbiyasida bu faoliyatning muhimligini unutmasligimiz lozim. Zero, davlatimiz rahbari ayтиб o‘tganlaridek, “barkamol avlodni shakllantirish, yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismonan sog‘lom etib tarbiyalash, ularni olib borilayotgan islohotlarning

faol ishtirokchisiga aylantirish Hammamizga ma'lumki, “ma'naviyat va ma'rifat” tushunchalarining ko‘pincha birgalikda qo'llanishi ma'naviy-ma'rifiy ishlarda ta'lim va tarbiya uyg'unligini nazarda tutadi. Ayniqsa, ta'lim muassasalarida buning ahamiyati,dolzarbligi yuz barobarga oshadi. Aytib o'tganimizdek, ma'naviyat bevosita ma'rifat tushunchasi bilan uzviy bog'liqdir. Chunki, bilish orqali juda ko‘p muammolarni bartaraf qilish mumkin. Manbalarda, “Ma'rifat (arabcha «arafa» - «bilmoq» so‘zidan) - ta'lim-tarbiya, iqtisodiy, siyosiy, falsafiy, diniy g‘oyalar majmui asosida kishilarning ong-bilimini,madaniyatini o'stirishga qaratilgan faoliyat” deb berilgan. “Ma'rifat” tushunchasi bilish, bilim, ma'lumot, tanish, tanishish ma'nolarida ham qo'llanilib kelinmoqda. Darhaqiqat, uning ma'nosni bilimdir. Atama sifatida esa u tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli-tuman bilimlar, ma'lumotlar majmuasini bildiradi. Ma'rifat degani bilimli, muayyan sohada ma'lumoti bor, degani bo'lib, insonparvarlik ma'naviyati zaminidagina o‘z mohiyatiga ega bo'ladi. Kishilarning bilimini, madaniyati oshirishga qaratilgan ta'lim-tarbiyaga ham ma'rifat deb ham qaraladi. Bu so‘z ilm-u urfon ma'nolarida ham ishlatiladi. Ma'rifat tushunchasi kengroq ma'noda qo'llanilib, bilim va ma'naviyatni yoyish va yuksaltirishning hamma turlari va sohalarini o‘zida mujassam qilgan. Bu ikki sermazmun tushunchalarning birga qo'llanishi ta'lim-tarbiya masalalarining barcha jihatlarini, odob, axloq, tarbiya,o'qish, bilim olish, o'rganish, mutolaa qilish, ilmli bo'lish, jamiyatga nafi tegadigan inson bo'lish va h.k. kabi qarashlar, fikrlarni o‘zida qamrab oladi. O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy sohalar qatorida ma'naviy-ma'rifiy ishlarga ham alohida o‘rin berilgan. Jumladan, 2021-yil 6-noyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining lavozimiga kirishishiga bag‘ishlangan tantanali marosimida Shavkat Mirziyoyev kelgusi besh yilga mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlar haqida so‘zlagan nutqlarida “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” degan tamoyilni asosiy g‘oya va bosh mezon sifatida ilgari surganda, uni tinglagan, eshitgan har bir inson keyingi amalga oshiriladigan islohotlarda millat, yurt va Vatan taraqqiyotini his etdi. Taraqqiyot strategiyasida jamiyatni yanada rivojdantirish uchun muhim bo‘lgan barcha siyosiy, iqtisodiy, xuquqiy masalalar bilan bir qatorda ma'naviy va ma'rifiy masalalarining qo‘yilishi

ham ushbu sohaning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini belgilaydi. Taraqqiyot strategiyasida inson qadrini ulug‘lash, erkin fuqarolik jamiyati. Yoshlar o‘z dunyo qarashida milliy – ma’naviy qadriyatlarga tayanmasa, ularning ongi va tafakkuridan mutlaqo begona qadriyatlar joy oladi. O‘zining milliy ma’naviy qadriyatlariga nisbatan bepisandlik bilan qarash shakllanadi. Yoshlarning milliy- ma’naviy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatinig hozirgi holatini o‘rganish, ularning amaliy faoliyatlarida ko‘proq qaysi qadriyatlar muhim bo‘lib borayotganini aniqlashga yordam beradi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsadularning milliy- madaniy meros va qadriyatlarga nisbatan ishonch va e’tiqodni mustahkamlashdan iborat. Yoshlarning milliy-ma’naviy qadriyatlarga nisbatan ishonch va e’tiqodining mustahkam bo‘lishi O‘zbekiston tanlagan o‘ziga hos va mos taraqqiyot yo‘li talablaridan kelib chiqadi hamda yoshlar oldiga aniq vazifalarni qo‘yadi. I.Ergashev jamiyat ma’naviy hayotida milliy qadriyatga munosabat muammolarini quyidagi omillarga bog‘laydi : 1. Mustaqillik ulug‘ ne’mat va qadriyat ekanini chuqur idrok etgan holda, umummaqsa yo‘lida yoshlar ozod shaxs va erkin fuqaro sifatida jamiyat oldidagi o‘z ma’suliyatini chuqur anglab, faollik ko‘rsatishi ularning qalb amriga aylanishi lozim. 2. Jamiyatni erkinlashtirish va ma’naviyat demokratiya hamda yoshlar dunyoqarashidagi milliy- ma’naviy qadriyatlarga tayanish bilan ham uzviy bog‘liq. Mamlakat, xalq, millatning buguni va kelajagiga daxldor bo‘lgan qadriyatlar haqida o‘z fikrini ochiq va erkin bildirish ayrim salbiy holatlarning oldini oladi. Eng muhimi,fikrni erkin aytish muhim. Yoshlar fikriga hurmat bilan qarash, o‘zgalar fikriga tayanish, milliy- ma’naviy qadriyatlarni tiklash orqali jamiyatda siyosiy- huquqiy madaniyat yuksalib boradi. 3. Demokratik jamiyatda milliy- ma’naviy qadriyatlarni tiklashga ehtiyoj ortib, fikrlar xilma- xilligi, munozara madaniyati shakllanadi. Faqat o‘z fikrini o‘tkazish, o‘zgalar fikrini bo‘g‘ib qo‘yish hollariga barham beriladi. 4. Milliy – ma’naviy qadriyatlarning tiklanishi tufayli yoshlar o‘z erkinligi va mustaqilligini qadrlaydigan, unga hurmat bilan qaraydigan, shu tuyg‘uga ko‘proq ehtiyoj sezadigan bo‘lib boradi. Madaniy merosga nisbatan befarqlik va loqaydlik kabi ayrim illatlar barham topadi. 5. Bugun rahbarlik lavozimlarida ishlayotgan ayrim shaxslar faoliyatida uchraydigan, qadriyatlarimizga to‘g‘ri kelmaydigan salbiy illatlarga

barham berish imkoniyati tug‘iladi. 6. Mustaqil mamlakatda har bir yoshning qaysi sohada ishlashidan qat’iy nazar, avvalo, ozod va erkin shaxs, inson sifatida o‘zligini anglamog‘i zarur bo‘ladi. O‘zlikni anglash esa ma’naviy qadriyatlarni chuqr o‘rganish, asrab- avaylab rivojlantirish orqali amalga oshadi.

Topshiriq

Sizdan o‘zingiz faoliyat yuritayotgan OTM misolida uning ma’naviy muhitiga ta’sir etuvchi tashqi jihatlar sifatida ma’naviy, ma’rifiy, ijtimoiy, texnologik omillarni aniqlashingiz, ya’ni PEST-tahlilini amalga oshirishingiz so‘raladi.

Universitet (OTM) ma’naviy muhiti PEST-tahlili

Ma’naviy (M)	
+	-
Ma’rifiy (M)	
+	-
Ijtimoiy(I)	
+	-
Texnologiya va innovatsiya (T)	
+	-

2-MASHG‘ULOT: OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLARNI TASHKIL ETISHDAGI MUAMMO VA ULARNING YECHIMLARI (2 soat)

REJA:

1.Oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishdagi muammolar va ularning yechimlari

2. Ta’lim muassasasi ichki muhiti tahlili. OTM uchun SWOT-tahlil vazifalari

1.Oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishdagi muammolar va ularning yechimlari

Oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish bir qancha muammolarni yuzaga keltiradi. Ushbu muammolarni tahlil qilish orqali, ularni hal etish yo’llarini aniqlash mumkin. Quyida ayrim asosiy muammolarni ko‘rib chiqamiz:

1. Talabalar orasidagi ma’naviy-axloqiy muammolar:

- Oliy ta’lim muassasalarida talabalar orasida turli axloqiy muammolar (masalan, befarqlik, narkotik moddalarga qaramlik, yoqimsiz xulqatvor) mavjud bo‘lishi mumkin. Bular talabalar orasidagi munosabatlarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.
- Ma’naviy qadriyatlarni shakllantirish va ularga hurmatni oshirish zarur.

2. Kadrlar tayyorlashning yetishmasligi:

- Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni samarali tashkil qilish uchun maxsus tayyorlangan pedagogik kadrlar, maslahatchilar, psixologlar va diniy mutaxassislar zarur. Biroq, ko‘plab oliy ta’lim muassasalarida bunday mutaxassislarning yetishmasligi yoki ularning faoliyatini tizimli tashkil etmaslik kabi muammolar mavjud.

3. Tashkilotning imkoniyatlari va mablag‘larining cheklanganligi:

- Oliy ta’lim muassasalarining ma’naviy-ma’rifiy ishlarni rivojlantirish uchun ajratiladigan mablag‘lari va resurslari cheklangan. Bu esa o‘quv jarayoniga zarur bo‘lgan qo‘srimcha tadbirlar, seminarlar, anjumanlar va boshqa ma’naviy ishlarni tashkil etishga to‘sqinlik qiladi.

4. Talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi aloqaning zaifligi:

- Ba'zan talabalar va o'qituvchilar o'rta sidagi aloqalar zaif bo'ladi. Bu esa talabalarni ma'naviy-axloqiy rivojlantirishga to'sqinlik qiladi. O'qituvchilar faqat ilmiy faoliyat bilan cheklanmasdan, talabalar bilan yaqin aloqada bo'lishi, ularning ma'naviy dunyosini shakllantirishda ishtirok etishi kerak.

5. Yoshlarning ma'naviy qadriyatlari va dunyoqarashi o'zgarishi:

- Hozirgi kunda yoshlarning ma'naviy qadriyatlari va dunyoqarashi tez o'zgarib bormoqda. Axborot texnologiyalari va globalizatsiya natijasida, ba'zan mahalliy madaniyat va an'analar unutilib, boshqa madaniyatlar va qadriyatlar kirib keladi. Bu talabalarni ma'naviy jihatdan shakllantirishda qiyinchiliklar tug'diradi.

6. Yangi texnologiyalar va internetning ta'siri:

- Internet va ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning fikrlash tarzini o'zgartirgan. Bu, o'z navbatida, ularning ma'naviy-axloqiy qadriyatlariiga ham ta'sir ko'rsatadi. Yangi texnologiyalarni to'g'ri foydalanishga o'rgatish va ularni ijobiy maqsadlar uchun qo'llash juda muhim.

7. O'quv rejalari va dasturlarining yoritilishi:

- Ba'zan ma'naviy-ma'rifiy ta'limning o'quv rejalari va dasturlari etarlicha yoritilmaydi yoki ularning samaradorligi past bo'ladi. Oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy ta'limni yanada samarali tashkil etish uchun ko'proq amaliy va interaktiv usullar qo'llanilishi zarur.

Muammolarni hal etish yo'llari:

1. Kadrlar tayyorlashni kuchaytirish:

- Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni amalga oshiradigan o'qituvchilar, psixologlar va boshqa mutaxassislarini tayyorlash va ularning faoliyatini yanada tizimli tashkil etish.

2. Ma'naviy-axloqiy ta'limni o'qitish dasturlariga kiritish:

- O'quv rejalari va dasturlarida ma'naviy-axloqiy ta'limni kengaytirish va uni talabalar uchun qiziqarli va interaktiv shaklda taqdim etish.

3. Resurslarni oshirish:

- Ma’naviy-ma’rifiy ishlar uchun ajratiladigan mablag’larni oshirish va bu sohada innovatsion texnologiyalardan foydalanish.

4. O‘qituvchi va talabalar o‘rtasida muloqotni kuchaytirish:

- O‘qituvchilar va talabalar o‘rtasida o‘zaro aloqani yaxshilash, talabalar muammolarini tinglash va ularga yordam ko‘rsatish.

5. Axborot texnologiyalari va ijtimoiy tarmoqlardan ma’naviy tarbiya uchun foydalanish:

- Yoshlarni ma’naviy-axloqiy jihatdan rivojlantirish uchun internet va ijtimoiy tarmoqlarni to‘g‘ri yo‘naltirish.

Ushbu muammolarni hal etishda o‘quv muassasalarining rahbariyati, o‘qituvchilar, talabalar va jamiyat birgalikda harakat qilishlari zarur.

2. Ta’lim muassasasi ichki muhitni tahlili. OTM uchun SWOT-tahlil vazifalari

Strategik rejlashtirish doirasida ichki muhitni tahlil etishning mashhur usullaridan biri – bu SWOT- tahlili deb nomlanadi(o‘zbekchada KOIT).

Bu yerda, “S” tashkilotning kuchli tomonlari, “W” – uning ojiz tomonlari, “O” bizning tashkilotimiz uchun tashqi muhit yaratadigan qulay imkoniyatlar va uning kutilayotgan o‘zgarishlari, “T”- tashkilot uchun ushbu muhit keltirib chiqaradigan tahdidlar, xavflar, risklardir.

Ushbu vaziyatda tahlilning mazmuni va ko‘lamni u amalga oshiriladigan vazifaning ko‘lamiga juda qattiq bog‘liq bo‘ladi. Faraz qilaylik, ushbu vazifa - OTMdagi tizimli o‘zgarishlarning imkoniyatlarini umumiy baholash - yetarlicha katta(murakkab) va mavhum(abstrakt).

Topshiriq

O‘z ta’lim muassasangizning muammoli(dolzarb) vaziyatiga e’tiborni qaratgan holda, uning kuchli va ojiz tomonlarini, imkoniyatlari va unga bo‘lishi mumkin bo‘lgan tahidlarni aniqlangan va ularni quyida keltirilgan jadval grafalariga yozing.

Keyinchalik OTM tashqi muhiti tahlilining barcha omillarining ijobiy tomonlaridan foydalangan holda ular orasidan OTM rivojlanishining salbiy tomonlarini bartaraf etishga qodir imkoniyatlarni tanlang.

O‘xhash tarzda tashqi muhitning barcha salbiy tomonlari ustida ishlang, ta’lim muassasasining kuchli tomonlari rivojlanishiga to‘sinqilik qiluvchi tahdidlarni aniqlang.

Quyidagi jadvaldagi mos grafalarni to‘ldiring

**OTMdA ma’naviy -ma’rifiy ishlarni tashkil etish boyicha OTMning ichki
muhiti taxlili**

Kuchli tomonlar	Ojiz tomonlar
Imkoniyatlar	Tahdidlar

OTMning ichki muhiti tahlili topshirig‘i tahlilining birinchi natijalari olingandan keyin, ular bilan quyidagilarni aniqlash maqsadida keyingi ishlarni amalga oshirish lozim:

- OTMning mavjud qaysi kuchli tomonlarini yanada kuchaytirish mumkin va buning uchun nima qilish kerak?
- qanday ojiz tomonlarini yo‘qotish mumkin, kelgusida ularga yo‘l qo‘ymaslik, ularning ta’sirini kamaytirish, o‘rnini qoplash va aynan qanday qilib?

- OTMga tashqi qulay ta'sirlarni kuchaytirish uchun nimalar qilish kerak, ularni o'z vaqtida aniqlash va ulardan OTM manfaati yo'lida qanday foydalanish mumkin?

- tashqi xavflar, tahdidlar va risklarga qanday qilib qarshi turish mumkin?

Ushbu tadbirlarni amalga oshirish uchun OTM rahbari bajarish muddatlarini va istalayotgan natijani aniq aniqlagan holda buyruq bilan ishchi guruhi tuzadi.

Topshiriq

1. Siz ishlayotgan OTMdagi mavjud qaysi kuchli tomonlarini yanada kuchaytirish mumkin va buning uchun nimalar qilish kerak?

2. Fikringizcha, qanday ojiz tomonlarni yo'qotish mumkin, kelgusida ularga yo'l qo'ymaslik, ularning ta'sirini kamaytirish, o'rnni qoplash va aynan qanday qilib?

3. Siz ishlayotgan OTM tashqi xavflar, tahdidlar va risklarga qanday qilib qarshi turish mumkin?

2. Oliy ta'limni modernizatsiyalashni amalga oshirish bo'yicha keyslarni ishlab chiqish. "Respublikamizdagi an'anaviy OTMlari ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish borasidagi asosiy muammolar" tahlili asosida oliy ta'lim muassasalari misolida belgilangan yo'nalishlar bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish.

3-MASHG'ULOT. MAFKURAVIY XURUJLARGA QARSHI MILLIY G'OYA ASOSIDA BIRGALIKDA KURASHISHDA MA'NAVIIY TARBIYANING UZVIYLIGINI TA'MINLASH (2soat)

Reja:

- 1.Milliy g'oyani yoshlar ongiga singdirishda innovatsion g'oyalar va qarashlar**
- 2. Innovatsion jarayon ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar asosida yuzaga kelgan yangilik sifatida**

1.Milliy g'oyani yoshlar ongiga singdirishda innovatsion g'oyalar va qarashlar

Har qanday millatning taraqqiyoti jamiyatdagi yoshlar qatlaming milliy g'oya va m'naviy qadriyatlarga munosabati, uning yoshlar ongi, qalbi va ichki dunyosiga qanday ta'sir etayotganligiga hamda amaliy faoliyatlariga qanday tarzda tayanishlariga bevosita bog'liq. Shunday ekan, yoshlarning milliy g'oyani anglashi, ishonch va e'tiqodiga aylanishi, qanday yangi qadriyatlar shakllantirilganligi bilan ham bog'liq bo'ladi. Chunki milliy g'oya bir tomondan yoshlarni o'zining ob'yekti sifatida qarasa, ikkinchi tomondan yoshlar miliy g'oyaning ilg'or rivojlantiruvchilari va kelajak avlodga yetkazuvchilari hisoblanadilar. Uchinchidan, yoshlar qanchalik milliy g'oya bilan qurollangan va uni anglab olgan bo'lsa jamiyat shunchalik taraqqiyotga erishadi; Bu holat milliy g'oya va yoshlarning o'zaro bog'liqligini belgilaydi. Boshqacha aytadigan bo'lsak, milliy g'oya qanchalik mazmunli va millat kelajagi uchun xizmat qiladigan va har bir kishining uzoqqa mo'ljallangan maqsad va manfaatlari, pirovardida esa millatning istiqbolini belgilashga xizmat qiladigan bo'lsa, uni yoshlar shunchalik tez qabul qiladi va unga nisbatan o'zining ijobiy munosabati shakllanadi. Shu bilan birgalikda, milliy g'oyaning yoshlarga nechog'li ta'siri, safarbar etuvchilik, ilhomlantiruvchilik, buyuk kelajak sari chorlovchilik sohasidagi ahamiyati, ta'lim va tarbiyada tutgan o'rni va roli uning hayot

haqiqatlariga, real borliqqa xalq turmushiga qanchalik mos va muvofiqligiga qarab belgilanadi.

Yoshlarda haqiqatga moyillik yuqori bo‘ladi, soxtakorlik, ko‘zbo‘yamachilik, so‘z bilan amaliyoti boshqa kabi salbiy hodisalardan jirkanadi, nafratlanuvchi ruhiyati kuchli bo‘ladi. Yoshlarning milliy qadriyatga munosabati, milliy g‘oya asosida “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan ulug,, maqsad va manfaatlarini umumlashtiradigan, tahlil etadigan, shu g‘oyalarni boyitish va ishonch, e’tiqodga aylantirish bilan bog‘liq. Bu ishni yo‘lga qo‘ymoq uchun to‘rtta masalaga alohida e’tibor berish lozim va zarurligi ko‘rsatilgan: Birinchidan, mavjud vaziyatni, yaqin istiqbolimizning rivojlanish tamoyillarini, kerak bo‘lsa, undagi salbiy holatlarning ijtimoiy sabablarini xolis o‘rganadigan nodavlat, mustaqil tashkilotlar faoliyatini takomillashtirish, ularning imkoniyatlaridan to‘la foydalanish zarur. Ikkinchidan, shiddatli sur’atlarda o‘zgarayotgan, to‘xtovsiz yangilanayotgan zamon, hayotimizda muttasil ravishda ro‘y berib turgan voqeа, hodisa va jarayonlar, O‘zbekiston davlat mustaqilligining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy-ma’naviy zaminlarini bundan-da mustahkamlash va barqarorlashtirishga bo‘lgan talab va ehtiyojlar ma’naviy, ma’rifiy-mafkuraviy ishlarni yanada jadallashtirish, umumiyl maqsad yo‘lida safarbar etish; Uchinchidan, milliy g‘oyaning kuchi bir tomondan ma’rifat-targ‘ibot ishlari, uning samaradorligiga bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan yoshlarning kundalik hayotda duch kelayotgan muammolarning tushunishlari, ularning munosabatlariga fikrga fikr bilan, g‘oyaga g‘oya bilan javob bera olish, uni qanday hal etayotganliklariga bevosita bog‘liqdir. Millat ravnaqi, Vatanga kerak bo‘lsa jonini jabborga berib faoliyat ko‘rsatadigan yoshlar bo‘lmasa milliy g‘oya mafkurasida ko‘zda tutilgan maqsadlarga erishib bo‘lmaydi. Bu yoshlarda milliy g‘ururni baland bo‘lishini taqozo etadi . Jamiyatda milliy g‘oya sohasini rivojlantirish yangi texnologiyalarni joriy etishni taqozo qiladi. Chunki, bu milliy g‘oyani yoshlar dunyoqarashiga ta’sirini ta’minlovchi muhim vositadir. Shu bois hozirgi vaqtida milliy g‘oyani yoshlar dunyoqarashiga ta’sirini oshirishda fundamental va amaliy tadqiqotlar natijalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Milliy g‘oyani targ‘ibot qilishda innovatsiya shu soha sifatini yaxshilashga yo‘naltirilgan holda

amalga oshiriladi. Innovatsiyalar dolzarb, muhim ahamiyatga ega bo‘lib, milliy g‘oya tizimida shakllangan yangicha yondashuvlardan iborat bo‘ladi. Mazkur yondoshuvlar tashabbuslar va yangiliklar asosida tug‘ilib, milliy g‘oya tizimining konseptual mazmunini rivojlantirish uchun istiqbolli asos bo‘lib xizmat qiladi. Milliy g‘oyani targ‘ibot qilishda innovatsiyaning amaliyotga kiritilishi innovatsion jarayonlarda amalga oshiriladi. Innovatsion jarayon deb – innovatsion o‘zgarishlarga tayyorgarlik ko‘rish va uni amalga oshirish jarayoniga aytildi.

2. Innovatsion jarayon ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar asosida yuzaga kelgan yangilik sifatida

Innovatsion jarayon – bu ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar asosida yuzaga kelgan yangiliklar, bu yangiliklarning shu soha vakillari tomonidan o‘zlashtirilishi va ulardan ilmiy asosda amaliyotda samarali foydalanishning o‘zgarib boruvchi yaxlitligidir. Milliy g‘oyani targ‘ibot qilishdagi innovatsion o‘zgarishlar, tizimga har qanday yangilikning kiritilishi bevosita shu soha vakili faoliyatini yangilash va o‘zgartirish orqali amalga oshirilishi ham atroflicha o‘rganilgan. Innovatsion faoliyat – bu uzluksiz ravishda yangiliklar asosida ishslash bo‘lib, u uzoq vaqt davomida shakllanadi va takomillashib boradi. Shu boisdan, innovatsiyalar doimiy ravishda ijtimoiy-siyosiy hayotga yangiliklar olib kirish orqali mafkuraviy qarashlar rivojiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Milliy g‘oya va mafkura xalqimizning azaliy an’analariga, udumlariga, tiliga, diniga, ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mehr-oqibat, insof, sabr-toqat,adolat, ma’rifat tuyg‘usini ongimizga singdirishi lozim. Buning uch asosiy jihatni bor. Bular: Birinchidan, o‘zbek milliy mafkurasi deyilsa – bu cheklanish, botqoqlikka, xudbinlikka olib keladi. Balki mustaqil davlatning milliy manfaat mafkurasi, umumiyl mafkuraviy g‘oyasi deb tushunish kerak; Ikkinchidan, turli harakatlar, siyosiy partiyalar mafkurasi, yo‘l-yo‘rig‘i mafkuraviy g‘oyadan chetda yoki teskari bo‘lib qolmasligi kerak. Vaholanki, mafkuralar yagona, bir butun jamiyat milliy mafkurasiga aylanishi lozim; Uchinchidan, milliy mafkuramiz globallashuv mafkurasi bilan uzviy bog‘liq – o‘zboshimchalikka yo‘l qo‘ymasligi bo‘lib, xalqimiz qudrati va himoyasiga suyangan holda, umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib, jahon hamjamiyatidagi davlatlar orasida teng huquqli hamda munosib o‘rin egallashiga

doimiy intilish hissini tarbiyalamog‘i kerak. Mafkuraviy g‘oyani o‘z ongiga singdirgan inson ulug‘dir. Chunki bola ota onasidan meros qilib olgan va dunyoga aytgan birinchi so‘zida milliy g‘oya va mehr-muruvvat, insonparvarlik ifoda qilinadi. O‘z xalqining milliy g‘oyasiga, an’analariga, tili va madaniyatiga muhabbat va hurmatni tarbiyalamasdan turib, o‘z xalqini butun jahon nazdida tenglardan, o‘zligini anglaganlardan biri sifatida idrok qiluvchi haqiqiy insonni, o‘z Vatani jonkuyarlarini tarbiyalashi mumkin emas! G‘oyaviy-mafkuraviy tizim faoliyatida innovatsiyalarni qo‘llash uchun sariflangan xarajat va kuchlardan maqsad ko‘proq yuqori natijani qo‘lga kiritish hisoblanadi. Bunda innovatsiyalar har qanday yangiliklardan, o‘zining boshqarish va nazorat qilishga imkon beradigan o‘zgaruvchan mexanizmga ega ekanligi bilan farqlanadi. Shu bilan birgalikda, xalqimiz o‘tmishi va hozirgi hayotida yaratilgan ma’naviy-madaniy va g‘oyaviy-mafkuraviy qadriyatlardan yurtimizdagagi ta’lim tarbiya tizimi va ijtimoiy-madaniy tuzulmalardagi turli bosqich, shakl va yo‘nalishlar: oila, bog‘cha, maktab, oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarining, shuningdek, yurtimizdagagi mahallalar, madaniy-ma’rifiy muassasalar, ommaviy axborot vositalari, jismoniy tarbiya va sport, adabiyot, san’at va din bilan bog‘liq sohalarning faoliyatida milliy g‘oyani xalqimiz ongi, qalbi va ichki dunyosiga yanada chuqur singdirishda keng foydalanish kutilgan natijalarni berishi muqarrar. Yosh avlodga milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari va ozod va obod Vatanni meros qoldirar ekanmiz, ular mutafakkirlarimizning, davlat rahbarlarining ulug‘ ishlarini davom ettirishlarini niyat qilar ekanmiz, yoshlarning ma’naviy uyg‘oqligiga ahamiyat berishimiz lozim. G‘aflat uyqusidan uyg‘onib, yorqin ko‘z bilan kelajakka nazar tashlaydigan zamon keldi. Shu boisdan ham, milliy g‘oyani xalq qalbi, ongi va ichki dunyosiga singdirish muayyan inovatsoin texnologiya asosida olib borilganida tadbirlarning ketma-ketligi, miqyosi va me’yori, davomiyligi va tamoyillari singari jihatlar bevosita qamrab olinadi. Ularning muhimligi shunda ko‘rinadiki, masalan, targ‘ibotda me’yorning buzilishi, milliy mafkura to‘g‘risida hadeb va noo‘rin gapiraverish, me’yorni bilmaslik teskari samara berishi mumkin. Targ‘ibot texnologiyasi milliy g‘oya va milliy mafkura mazmun-mohiyatiga mos bo‘lgan taqdirdagina kutilgan natijaga erishish mumkin. Demak, milliy istiqlol

mafkarasining: - muayyan g‘oyaga ishontirish; uyushtirish; safarbar qilish; ma’naviy-ruhiy rag‘batlantirish; g‘oyaviy tarbiyalash; g‘oyaviy immunitetni shakllantirish; harakat dasturi tuzish; kabi maqsadlarini ro‘yobga chiqarish dolzarb vazifaga aylandi. Zero, ana shunda O‘zbekiston xalqi oldida turgan milliy istiqlol mafkarasining bosh g‘oyasi “Milliy – tiklanishdan – milliy yuksalish sari” ishi o‘zining ta’sirchan, amaliy vositasiga ega bo‘ladi. Targ‘ibot milliy g‘oya va milliy mafkura mazmun-mohiyatiga mos bo‘lgan taqdirdagina kutilgan natijaga erishish mumkin. Jumladan, milliy g‘oyani targ‘ib qilishda ishtirok etuvchi barcha bo‘g‘in va ayrim pog‘onalarda: uzluksizlik; bosqichma-bosqichlik; faollik; mafkurani e’tiqodga aylantirish; ish bilan so‘z birligi; shaxsiy ibrat; hayotiylik (yutuqlar bilan birga kamchiliklarni ham ko‘rsatish) tamoyillariga amal qilish maqsadga muvofiq. O‘zbekistonda mafkuraviy jarayonlarni tashkil etishning ustuvor yo‘nalishlari quyidagilardan iborat: – belgilangan tadbirlarning yuqori darajada uyushqoqlik bilan o‘tkazilishini ta’minalash; – milliy g‘oya targ‘ibotining sifatini muntazam oshirib borish; – davr talablaridan kelib chiqqan holda mafkuraviy ishlarni tashkil etishning yangi, samarali yo‘llarini izlash; – mafkuraviy jarayonlarni tashkil etishda ijtimoiy muhitni hisobga olish; – mafkuraviy faoliyatning qanchalik samarali olib borilayotganini bilish maqsadida uning monitoringini tashkil etish. Mafkuraning targ‘ibotiga aynan shunday yondashish ko‘proq samara beradi. Shundagina insonlarning salohiyati, mehnati, vaqt, mulki va mablag‘larini tanlangan maqsad sari yo‘naltirish mumkin. Bu esa mafkuraviy siyosatning natijasini moddiy narsalarda - yuqori sifatlari mahsulotlarda, badavlat turmushimizda, bunyodkorlik ishlarida, erkin va farovon hayotda, iqtisodiy o‘sishda “o‘lchash” imkonini beradi. Bu jarayonda esa innovatsion texnologiyalarning o‘rni beqiyosdir.

4- MASHG‘ULOT. IJTIMOIY MEDIA VOSITALARI VA ULARNING TA’LIMDA QO’LLANILISHI (4 soat)

Reja:

1.Ta’lim tizimida ijtimoiy media vositalarining ahamiyati.

2. Ta’lim tizimida multimediya texnologiyalari va ulardan samarali foydalanish

1.Ta’lim tizimida ijtimoiy media vositalarining ahamiyati.

Ijtimoiy media, insonlar orasida ma'lumot almashish, fikr almashish va axborotni ommaviy tarqatish imkonini beruvchi kommunikatsiya vositasi yoki tizimi sifatida taniladi. Bu tizim ijtimoiy tarmoqlar, telekanallar, radio, yangilik portallari, bloglar, veb-saytlar, forumlar va boshqa axborot vositalari orqali olib boriladi. Ijtimoiy media, jamiyatda hodisalar, yangiliklar, fikrlar va axborotlarni tarqatish, almashish, va ularga munosiblik yaratishda muhim rol o'ynaydi. Bu platformalar, foydalanuvchilarga bir-biriga yo'naltirilgan axborotlar, rasm, videolar, matnlar va boshqa turlardagi kontentlarni ulashish imkonini beradi. Ijtimoiy media, jamiyatdagi yangiliklarni, mazkur vositalar orqali aloqalar yaratish, tajribalar almashish va dunyo bo'ylab hodisalardan xabardor bo'lish imkonini yaratadi. Bundan tashqari, ijtimoiy media odamlarga o'z fikrlarini ifoda qilish, aloqa qilish, jamiyatdagи bo'layotgan masalalarga qatnashish, ijtimoiy ishtirok etish va o'zlarini tanitish imkonini ham beradi. Bugun biz ta'lim muassasalari ushbu ishlanmalarni o'z tizimlariga moslashtirib, talabalar hayotini yaxshilash uchun guruh resurslari va mexanizmlariga tayanayotganini ko'rishimiz mumkin. Ta'limda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish o'quvchilar, o'qituvchilar va ota-onalarga ko'proq foydali ma'lumotlar olishga, o'quv guruhlari va ta'limni osonlashtiradigan boshqa ta'lim tizimlari bilan bog'lanishga yordam beradi. Ijtimoiy tarmoq vositalari talabalar va muassasalarga ta'lim usullarini yaxshilash uchun ko'plab imkoniyatlarni taqdim etadi. Ushbu tarmoqlar orqali biz almashish va o'zaro aloqani ta'minlaydigan ijtimoiy media dasturlarini o'rnatishimiz mumkin. Talabalar YouTube orqali onlayn darsliklardan, Skype orqali xorijdagi universitetlar tomonidan olib boriladigan onlayn kurslardan va ijtimoiy tarmoqlar orqali baham ko'rildigan keng ko'lamli resurslardan foydalanishlari mumkin. Ijtimoiy tarmoqlar orqali o'rganish uchun turli mavzular yoki masalalar bo'yicha tahlillar va tushunchalar kabi qimmatli bilimlar mavjud. Ta'lim muassasasi sifatida ko'plab ijtimoiy platformalarda faol bo'lish juda muhim sanaladi, chunki bu talabalarni o'qitishning yaxshiroq strategiyalarini yaratishga yordam beradi va

talabalar madaniyatini shakllantiradi. Ijtimoiy media bizning turli mavzulardagi nuqtai nazarimizni kengaytirish qobiliyatiga ega va yangi, yorqin, tezkor kontentni taqdim etadi. Bizga yordam kerak bo‘lishi mumkin bo‘lgan mavzular bo‘yicha javob olish uchun mutaxassislarni jalb qilish imkoniyati mavjud. Ijtimoiy media insonlar uchun qiziq bo‘lgan foydali vositalarni taklif qiladi. Instagram/Facebook so‘rovlarini yaratish yoki Google Forms yoki Survey Monkey yordamida so‘rov o‘tkazish orqali ko‘pchilikning ma’lum bir mavzuga qanday munosabatda bo‘lishini yoki Quora kabi forumlardan foydalangan holda mutaxassislar muayyan muammolarni qanday qabul qilishini va maslahat berishini bilib olish mumkin. Bu talabalarga tadqiqot uchun foydali tarkibni tuzish va ishlab chiqarishga yordam beradi. Talabalar topshiriq ustida ishlayaptimi, loyiha ustida ishlayaptimi yoki mavzu bo‘yicha ko‘proq ma’lumot olishga harakat qilmoqdam, eng yaxshi ma’lumotlar va natijalarni ijtimoiy tarmoqlardan olish mumkin. Xulosa shuki, ijtimoiy tarmoqlar kundalik hayotimizning katta qismidir va uni ta’lim jarayonidan uzoqlashtirishdan ma’no yo‘q. Maktab, kollej va universitet xodimlari o‘quvchilar va ota-onalar o‘rtasidagi muloqot uchun texnologiyadan foydalanishni rag‘batlantirishlari kerak. Buning foydalari yaqqol ko‘rinib turibdi, ota-onalar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi sog‘lom munosabatlardan boshlab, o‘quvchi yoshlarning o‘rganish usullarini doimiy ravishda o‘zgartirib kelmoqda.

2. Ta’lim tizimida multimedya texnologiyalari va ularidan samarali foydalanish

Multimedia vositalari hozirgi paytda ta’lim va kasbga tayyorlash sohasida, nashriyot faoliyatida (elektron kitoblar), biznesni kompyuterlashtirish uchun (reklama, mijozlarga xizmat ko‘rsatish), axborot markazlarida kutubxona, muzey va hokazolarda muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda. Bilimlarni chuqurlashtirishda, o‘qitish muddatini qisqartirishda va bir o‘qituvchiga tinglovchilar sonini oshirishga imkon beruvchi kompyuterli dars beruvchi multimedia tizimlari alohida o‘rin egallaydi.

Multimedia materiallarining potensial afzalliklari haqida Meer (Maer) ham aytib o‘tgan. Tinglovchiga video va audio axborotlarni qabul qilish imkoniyatini yaratgan

holda, alohida olingan ushbu imkoniyatlarning har biridan ham ko‘ra multimedianing ma’lum ustunligi mavjud.

Multimedia vositalarini ta’limda qo‘llash quyidagilarga imkoniyat yaratadi:

- ta’limning gumanizatsiyalashuvini ta’minlash;
- o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish;
- ta’lim oluvchining shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish (o‘zlashtirganlik, bilimga chanqoqlik, mustaqil ta’lim olish, o‘zini o‘zi tarbiyalash, o‘zini o‘zi kamol toptirishga qaratilgan qobiliyatlilik, ijodiy qobiliyatları, olgan bilimlarini amaliyatga qo‘llay olishi, o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi, mehnatga bo‘lgan munosabati);
- ta’lim oluvchining kommunikativ va ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirish;
- kompyuter vositalari va axborot elektron ta’lim resurslari yordamida har bir shaxsning alohida (individual) ta’lim olishi hisobiga ochiq va masofaviy ta’limni individuallashtirish va differensiyalash imkoniyatlari sezilarli darajada kengayadi;
- ta’lim oluvchiga faol bilim oluvchi sub’ekt sifatida qarash, uning qadr-qimmatini tan olish;
- ta’lim oluvchining shaxsiy tajribasi va individual xususiyatlarini hisobga olish;
- mustaqil o‘quv faoliyatini olib borish, bunda ta’lim oluvchi mustaqil o‘qib va rivojlanib boradi;
- ta’lim oluvchilarda, o‘zlarining kasbiy vazifalarini muvaffaqiyatli bajarish uchun hozirgi tez o‘zgaruvchan ijtimoiy sharoitlarga moslashuviga yordam beradigan zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini hosil qilish.

Ta’lim oluvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish va ularning manfaatdorligini (motivatsiyasini) oshirishga ko‘maklashish imkoniyatlariga ko‘ra,

shuningdek, har xil turdag'i multimediali o'quv axborotlarining uyg'unlashuvi, interfaollik, moslashuvchanlik sifatlariga ko'ra multimedia foydali va mahsuldor ta'lif texnologiyasi hisoblanadi.

Multimedia vositalari ta'lif berishning samarali va istiqbolli quroli (instrumentlari) bo'lib, u o'qituvchiga an'anaviy ma'lumotlar manbaidan ko'ra keng ko'lamdagi ma'lumotlar massivini taqdim etish; ko'rgazmali va uyg'unlashgan holda nafaqat matn, grafiklar, sxemalar, balki ovoz, animatsiyalar, video va boshqalardan foydalanish; axborot turlarini ta'lif oluvchilarning qabul qilish (idrok etish) darajasi va mantiqiy o'rganishiga mos ravishda ketma-ketlikda tanlab olish imkoniyatini yaratadi.

Multimedia texnologiyalarining barcha imkoniyatlarini to'liq ochib berish va ulardan samarali foydalanish uchun ta'lif oluvchilarga salohiyatli (kompetentli) o'qituvchining ko'magi zarur bo'ladi.

Elektron interaktiv doska – raqamli, dasturiy va Internet texnologiyalari sohasidagi oxirgi yutuqlar kombinatsiyasidir. Bu ta'lif sohasidagi keskin o'zgarish hisoblanadi, chunki an'anaviy doska va bo'rlar elektron ko'rinishga o'tadi. Elektron interaktiv doska - personal kompyuter uchun periferiya qurilmasi hisoblanadi. Proektor qurilmasi bilan birgalikda videoroliklarni, rasmlarni va boshqa ob'ektlarni yaratish va namoyish etish, kompyuter xotirasiga saqlash yoki printer orqali bosmaga chiqarish mumkin.

Xulosa o'rnida, Interfaol multimedia texnologiyalari akademik ehtiyojga ega bo'lgan ta'lif oluvchiga noan'anaviy qulaylik tug'diradi. Xususan, eshitish sezgisida defekti bor ta'lif oluvchilarda fonologik malakalar va o'qish malakalari o'sishiga, shuningdek, ularning axborotlarni vizual o'zlashtirishlarini ta'minlaydi. Nutqi va jismoniy imkoniyati cheklanganlarda esa vositalardan ularning individual ehtiyojlaridan kelib chiqib foydalanishga imkon beradi.

TOPSHIRIQ

Oliy ta’lim muassasasida ta’lim jarayonini yaxshilash borasida yangiliklar kiritishni taklif qiling. Bunday yangiliklar kompyuter texnologiyalaridan foydalanish, mashg‘ulotlarni tashkil etish tartibi, ma’lumotlar bazasini shakllantirish va shu kabilar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Yangiliklarni joriy qilishning maqsadga muvofiqligini asoslang va natijalarni quyidagi jadvalda aks ettiring.

OTMda ta’lim jarayonini takomillashtirish borasida yangiliklar

Yangiliklarning asosiy jihatlari	Mazmuni
Yangilikning nomlanishi	
Erilishi ko‘zda tutilayotgan maqsad	
Taklifning qisqacha mazmuni	
Iste’molchi	
Taklif qilinayotgan yangiliklarning mohiyati	
Ko‘zda tutilgan ijrochi	
Loyihani amalga oshirish tartibi	
Zaruriy resurslar	
Ko‘zda tutilayotgan samaradorlik	

Harakatlar rejasi:

1. O‘zgarishlarni amalga oshirish uchun jamoani shakllantirish(tuzish).
2. Tashkilot (OTM)da ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni o‘rganish, tahlil etish va vaziyatni anglash.
3. Ushbu o‘zgarishlar va vazifalarning tavsifini, ularni boshqarish bo‘yicha o‘zgarishlarni amalga oshirish zarurligini tushuntirish va asoslash.
4. Asosiy xodimlar tomonidan bilimlarning egallanishi va yetkazilishi.
5. O‘zgarishlarni muvaffaqiyatli tatbiq etish yo‘lidagi to‘siqlarni aniqlash.
6. O‘zgarishlarni boshqarish rejasiga mos keluvchi rejani ishlab chiqish.
7. Natijaga erishish uchun o‘zgarishlar mazmun-mohiyati, qarorlar va hattiharakatlar yo‘nalishlari bo‘yicha asosiy xodimlar orasida konsensus(kelishuvga) erishish.

8. Tanlangan strategiyaga mos keluvchi o‘zgarishlarni amalga oshirish.

Topshiriq

Bugungi kunda OTMlarda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni amalga oshirish bo‘yicha qaysi muammoni eng dolzarb deb hisoblaysiz?

Quyidagi jadvalda keltirilgan savollarga javob bering (o‘z fikringizni asoslagan holda) va ularni muhimligi bo‘yicha ketma-ketlikda raqamlab chiqing. Shuningdek, jadvalning muammolar ustunidagi “-“ bo‘sh joylarni to‘ldiring.

OTMdha ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish borasidagi muammolar

Muammo	(Ha, yo‘q yoki qisman)	Muhimligi
Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni amalga uchun jamoani shakllantirish(tuzish).		
tashkilot (OTM)dagi ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etilishi bo‘yicha muammolarni o‘rganish, tahlil etish va vaziyatni anglash.		
ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish uslubini o‘zgartirish zarurligini tushuntirish va asoslash.		
asosiy xodimlar tomonidan bilimlarning egallanishi va yetkazilishi.		
o‘zgarishlarni muvaffaqiyatli tatbiq etish yo‘lidagi to‘siqlarni aniqlash.		
natijaga erishish uchun o‘zgarishlar mazmun-mohiyati, qarorlar va hatti-harakatlar yo‘nalishlari bo‘yicha asosiy xodimlar orasida konsensus(kelishuvga) erishish		
tanlangan strategiyaga mos keluvchi o‘zgarishlarni amalga oshirish		

**OTMlarda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni olib
borishdagi turli muammolar:**

-
-

Boshqa muammolar:

-
-

TAJRIBA ALMASHISH

- 1.Oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishdagi dolzarb vazifalar. Tinglovchilar mavzu yuzasidan o‘zaro fikr va tajriba almashadilar .
2. Mafkuraviy xurujlarga qarshi milliy g‘oya asosida bиргаликда kurashishda ma’naviy tarbiyaning uzviyligini ta’minlash. Tinglovchilar mavzu yuzasidan o‘zaro fikr va tajriba almashadilar
3. Ijtimoiy media vositalari va ularning ta’limda qo‘llanilishi. Tinglovchilar mavzu yuzasidan o‘zaro fikr va tajriba almashadilar .

I. ADABIYOTLAR RO'YXATI

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR

I. Normativ-huquqiy hujjatlar

9. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023.
10. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida” Qonuni.
11. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktabrda qabul qilingan “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida” Qonuni.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847- sonli Farmoni.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabr “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-6097-sonli Farmoni.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi ““O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida” PF-158-son Farmoni.
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagи “Ma’muriy islohotlar doirasida oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-200-son Qarori.
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-fevraldagи “Ta’lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-54-son Qarori.

II. Maxsus adabiyyotlar

5. Standards and Guidelines for Quality Assurance in the European Higher Education Area (ESG).
6. Handbook on university accreditation in Korea.
7. International Programme Accreditation. Method Handbook for Higher Education Institutions Outside the UK.
8. EAHEA accreditation handbook. EAHEA Accreditation Quality Standards.

III. Elektron ta’lim resurslari

- 18.<http://www.lex.uz>
- 19.<http://www.norma.uz>
- 20.<http://www.yuz.uz>
- 21.[http:// www.strategy.uz](http://www.strategy.uz)
- 22.<https://president.uz>
- 23.[http:// www.edu.uz](http://www.edu.uz)
- 24.[http:// www.lib.bimm.uz](http://www.lib.bimm.uz)
- 25.<https://www.enqa.eu>

- 26.<https://www.inqahe.org>
- 27.<https://www.eqar.eu>
28. <https://wfme.org>
- 29.<https://apqn.org>
- 30.<https://ireg-observatory.org>
- 31.<https://www.chea.org/about-ciqg>
- 32.<https://www.ceenqa.org>
- 33.<https://iveta.global>
- 34.<https://www.unwto.org> .



TELEGRAM



INSTAGRAM



FACEBOOK



YOUTUBE



20
25



+998-71-202-01-20



<https://bimm.uz>